

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI  
O'ZBEKISTON MILLYI UNIVERSITETI**



**“TASDIQLAYMAN”**

O'zMU rektori

**I. Madjidov**

2024-yil “ ”

**JAHON TARIXI FANINING  
O'QUV DASTURI**

**Bilim sohasi:** 200000 – San'at va gumanitar fanlar

**Ta'lim sohasi:** 220000 – Gumanitar fanlar

**Ta'lim yo'nalishi:** 60220300 – Tarix

**Toshkent-2024**

<b>Fan/modul kodi</b> JBTB128		<b>O‘quv yili</b> 2024-2025 2025-2026 2026-2027	<b>Semestr</b> 1,2,3,4,5	<b>ECTS - Kreditlar</b> 28	
<b>Fan/modul turi</b> Majburiy		<b>Ta’lim tili</b> O‘zbek / Rus		<b>Haftadagi dars soatlari</b> 4, 4/8, 4/8, 4/8, 4	
1.	<b>Fanning nomi</b>	<b>Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)</b>	<b>Mustaqil ta’lim (soat)</b>	<b>Jami yuklama (soat)</b>	
	<b>Jahon tarixi</b>	336	504	840	
2.	<p><b>I. Fanning mazmuni</b></p> <p><b>Fanni o‘qitishning maqsadi</b> - Jahon tarixining turli bosqichlarida ro‘y bergan muhim voqealar va jarayonlarni, insoniyatning ko‘p asrlik taraqqiyotiga katta ta’sir ko‘rsatgan omillarni, tarixiy rivojlanish davomida turli mamlakatlar va mintaqalarga xos bo‘lgan xususiyatlarni, dunyoning turli chekkalarida ro‘y bergan voqealar va jarayonlarning ko‘p hollarda o‘zaro bog‘liqligini, tarixiy rivojlanishning barcha mamlakatlar uchun umumiy qonuniyatlar mavjudligini tadqiq etishdan iborat.</p> <p><b>Fanni o‘qitishning vazifalari</b> - Jahon tarixining turli bosqichlarida ro‘y bergan muhim voqealar va jarayonlarni o‘rganish, tarixiy taraqqiyotga ta’sir ko‘rsatgan omillarni tahlil etish, tarixiy rivojlanish davomida mamlakatlar va mintaqalar tarixiga xos bo‘lgan xususiyatlarni ochib berish, xalqlarning mentaliteti, urf-odatlarini, madaniyatini ilmiy tadqiq etish, dunyo xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy va etnik evolyutsiyasining asosiy bosqichlari hamda yo‘nalishlarini tushuntirishdan iborat.</p> <p><b>II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)</b>  <b>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</b>  <b>JAHON TARIXI I QISM</b>  <b>(Qadimgi Sharq tarixi)</b></p> <p><b>1-mavzu. Kirish. Qadimgi Sharq tarixi manbashunosligi.</b></p> <p>Qadimgi Sharq tarixi manbashunosligi va tarixshunosligi tushunchasi. Manba turlari va uni o‘rganish metodikasi. Qadimgi yozma manbalar sfragistika va numizmatika. Arxeologik manbalar. Me’morchilik yodgorliklari. Qadimgi Misr tarixshunosligi va manbashunosligi. G.Karterning arxeologik izlanishlari. Tutanaxamon maqbarasi. Qadimgi Misr yozuvi va J.Shampolon. Manefon. Qadimgi Misr adabiyoti.</p> <p>Ikki daryo oralig‘i (Mesopotamiya) manbashunosligi va tarixshunosligi.</p>				

Yozma manbalar, Xamurappi qonunlari. Hukmdorlar ro'yxati. Limmu Berroes. Assam silindri.

Kichik Osiyo tarixi manbashunosligi, arxeologik izlanishlar. Chatal Guyuk. Troya. G.Shliman, D.Mellard, B.Grozniy, numizmatika.

Qadimgi Suriya, Palastin, Finikiya manbashunosligi va tarixshunosligi. Yozma manbalar. Yahudiylikning asosi. Qadimgi Eron manbashunosligi va tarixshunosligi. Arxeologik manbalar. Jarmo, Joytun, Xisor, Suza, Shaxtepa, Shaxri-Soxta, Marlik, Ekbatan, Persepol. Qadimgi Eron tarixiga oid yunon manbalari. Qadimgi Hindiston manbashunosligi. Moxendja-daro, Xarappa, Lotxal, Kalibangan, Shortugay, Pataliputra, Taksilla. Manu qonunlari. Atxashastra. Qadimgi Xitoy manbashunosligi. Arxeologik yozma manbalar. Chjo-Kou-Dyan, Yelan manbalari ma'lumotlari, Anyan, Loyan, Sin-Shi Shuandi maqbarasi. Anyan yozma manbalari. Sima Syan solnomasi. Qadimgi Xitoy adabiyoti manba sifatida.

### **2-mavzu. Ilk va Qadimgi Misr podsholigi.**

Ilk va Qadimgi podsholiklar davrida Misr. Qadimgi Misr tarixiga oid manbalar va manbashunoslik. Tabiiy sharoiti va aholisi. Ilk ziroatkor dehqon qabilalar. Nil vohasiga joylashishi. Misr tarixini davrlashtirish. Manefon. Misrda stratifikatsiyalashgan jamiyat vujudga kelishi. Ilk shaharlar va davlatlar paydo bo'lishi. Misrda markazlashgan davlat shakllanish jarayoni. Ilk shohlik. I va II sulolalar. Narmer. Mina. Memfis. Jer. II sulola. Qadimgi shohlik davri. III sulola. Joser va Imxotep islohotlari IV sulola. Firavnlarning faoliyati. Snofruning tashqi siyosati. Xufu, Xafra va Menkaura. V – VI sulolalar. Qadimgi shohlik parchalanishi. Birinchi o'tish bosqichi. VII – VIII sulolalar. Qadimgi shohlik davrida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar. Misr yakka hukmronligi. Fir'avnlarini huquqlari. Chati. Davlat ma'muriyati. Harbiy kuchlar. Nomlar va mahalliy ma'muriyati. Davlat xizmatchilari. Mirzalar. Fir'avnlarini ichki siyosati va tashqi siyosati. Bosqinchilik yurishlar. Xo'jalik. Sug'orilish sistemalari. Dehqonchilik. Madaniy o'simliklar. Bog'dorchilik va uzumchilik. Chorvachilik. Konchilik. Mis metallurgiyasi. Mis buyumlar. Toshga ishlov berish. Kulolchilik, qurilish, Mastabalar, Piramidalar.

### **3-mavzu. O'rta podshohlik davrida Misr davlati.**

O'rta podshohlik davri IX – X sulolalar. Gerakleopol kuchayishi. Axtoy nasihati. Liviyaliklar va Osiyo ko'chmanchilari hujumlari. XI sulola. Mentuxotep. Mis birlashishi. XII sulola. Amenemxet I, Senusert III, Amenemxet III. Ichki va tashqi siyosat. It-ta'uy. Nom zadogonlari bilan munosabatlar. Nubiya, Sinay va Falostin bosib olinishi. XIII sulola. Xalq qo'zg'olonlari va fuqaro urushi. "Ipuser so'zlari" va "Nofertiti nutqi". Giksoslar istilosi va Misr davlati parchalanishi. XIV sulola. Davlat boshqaruvi. Nomarxlar, Zodagonlar, Dehqonlar, Fir'avn odamlari. Qullar. Ibodatxonalar va koxinlar. Xo'jalik. Sug'orilish tizimi. Fayyum. Savdo. Bibl. Ugarit va Krit. Punt. Ikkinchi o'tish bosqichi. Giksoslar hukmronligi. XV–XVI sulolalar. Avaris. Xian. Apopi. Giksoslarni Misrdagi siyosati.

#### **4-Yangi podsholiklik davrida Misr davlati.**

Yangi podsholik davri. XVII sulola. Fiva. Kames XVIII sulola. Yaxmos. Giksoslar. Misrdan haydalihi. Harbiy islohot. Tashqi siyosat va bosqinchilik yurishlar. Tutmos I. Tutmos II. Xatshepsut. Senmut. Tutmos III va uning yurishlari. Megiddo. Nubiya. Amenxotep IV (Exnaton) siyosiy va diniy islohotlari. Axetaton. Tutanxamon. Xoremxeb. XIX sulola. Memfis. Ramzes II. Per-Ramzes. Bosqinchilik yurishlar. Xetlar bilan urush. Kadesh. Xett-Misr sulhi. Merneptax. “Dengiz xalqlari” bosqini. XX sulola. Fiva. Setnaxt. Ramzes III. Ibodatxonalar va koinlar. Misr parchalanishi. Yangi shohlik davrida ijtimoiy munosabatlar. Fir’avnlar. Zodagonlar. Koxinlar. Dehqonlar va hunarmandlar. Qullar. Davlat boshqaruvi. “Texmir manbasi”. Vazirliklar, Viloyatlar ma’muriyati. Mahalliy boshqaruv. Harbiy kuchlar. Amenxotep IV (Exnaton) davrida siyosiy kurash. Xo’jalik. Sug’orilish ishlari. Shaduf. Yangi mehnat qurollari. Yangi madaniy o’simliklar. Chorvachilik. Hunarmandchilik. Jez buyumlar. Qurilish. Uchinchi o’tish bosqichi. XXI – XXII sulolalar. Sheshonk I, Bubastis. Harbiylar va koinlar. XXIII sulola. Tanis. Kush davlatining kuchayishi. Sais. Tefnaxt. Kashta va Pianxa. XXIV sulola Bakenraf (Bokxoris). Ichki vaziyat. Bokxoris qonuni. XXV sulola. Shabaka. Taxarka. Ossuriyaliklarni istilosi. Nomarxlar. Tanutamon. Sais XXVI sulola. Psametik I va uning siyosati. Nexo II. Apriy. Amasis (Yaxmos). Psametik III. XXVII Eron sulolasi. Misr Eron davlati tarkibida XXVIII – XXX sulolalar. Misrning Aleksandr Makedonskiy tomonidan egallanishi.

#### **5-mavzu. So’nggi podsholiklik davrida Misr davlatining ichki va tashqi siyosati .**

So’nggi podshohlik davrida iqtisodiy munosabatlar. Metallarga ishlov berish. Tovar-pul munosabatlari. Bubastislar sulolasi. Tashqi savdo. Yunoniston bilan savdo. Navkratis. Sheshonk isloxlari. Yer ijarasi. Tabaqalanishni kuchayishi. Qurilish. Qadimgi Misr madaniyati va uning xususiyatlari. Diniy e’tiqodlar. Nomlar xudolari. Umumiy xudolar. Osiris va Isida. Fir’avnlar shaxsini ilohlashtirish. Exnatonning diniy islohoti. Diniy marosimlar. “Marhumlar kitobi”. Dafn etish marosimi. Til va uning rivojlanishi. Yozma manbalar. Qadimgi Misr adabiyoti. Afsonalar. Ertaklar. Badiiy adabiyot. Falsafa. Tasviriy san’at, haykaltaroshlik va me’morchilik. Ulkan haykallar. Kashtaritti. Piramidalar. Ibodatxonalar – Abu Simbel, Karnak, Luksor, Deyr el Bahri. Yer osti qabrlar. Saroylar. Fan. Astronomiya. Matematika. Tibbiyot. Solnomalar. Ensiklopedik lug’atlar. Qadimgi Misr sivilizatsiyasi yutuqlari va uni jahon sivilizatsiyasiga qo’shgan hissasi.

#### **6-mavzu. Qadimgi Mesopotamiya mil.av. IV – II ming yillikda.**

Mesopotamiyaning tabiiy geografik shart-sharoiti. Iqlimi. Aholisi. Semitlar, Shumerlar, Kutiyalar, Lulibeylar, Oromiyalar Arxeologiya izlanishlari. Xo’jalik yozma manbalari. Huquq manbalari. Tarixiy manbalar. Ikki daryo oralig’i tarixini davrlashtirish. Inson tomonidan Ikki daryo hududlarini o’zlashtirish. Ilk sivilizatsiya vujudga kelishi. Iqtisodiy rivojlanish. Stratifikatsiyalangan jamiyat

vujudga kelishi. Shahar-davlatlar. Davlat tuzumi. En, Lugal, Ensi, Kishni yuksalishi. En Menbargesi. Urukni yuksalishi. Mesanishada. Lagash. Eanatum. Enentarzi. Uruiningin islohotlari. Umma. Lugalzagesi. Tabaqalar. Xo'jalik. Sug'orilish. Dehqonchilik. Hunarmandchilik. Mis va jez buyumlar. To'qimachilik. Savdo. Madaniyat. Yozuv.

Akkad davri. Sargon (Sharrumken). Ikki daryo oralig'ida birlashgan Akkad davlatining tashkil topishi. Sharru. Rimush. Manishtushu. Naram Suen. Akkad davlati zaiflashuvi. Guteylar bosqini. Lagash. Gudea. Utuxengal. Urning III sulolasi. Ur-Nammu. Shulga Davlat tizimi. Ijtimoiy munosabatalr. Tashqi siyosat. Amoreylar. Elamlklar bosqini. Ur qulashi. Issinning I sulolasi.

### **7-mavzu. Qadimgi Bobil podsholigi.**

Qadimgi Bobil shohligi. Siyosiy parchalanish. Xamurappi va uning faoliyati. Samsuiluna. Kassitlar xujumi. Podsho Burnaburiash davrida Bobilning tashqi siyosati. Bobil davlati zaiflashuvi. Xetlar hujumi. Kassitlar bosqini. Bobil davlati qulashi. Qadimgi Bobil madaniyati.

### **8-mavzu. Mitanni davlati**

Qadimgi Mitanni davlati. Mil. av. XVII asrda shimoliy Mesopotamiya. Aholisi. Xurrit va somiy qabilalari ittifoqi. dehqonchilik va chorvachilik. Savdo-sotiq. Oriylar Mitanni davlatining tuzilishi. "Xanigalbat". Vashshukanna. Podsho Kita. Qadimgi Mitanni madaniyati.

### **9-mavzu. Qadimgi Ossuriya**

Yangi ossur podsholigi. Iqtisodiy yuksalish. Ashshurnasripal II. Salmanasar III, Kalxu. Qadimgi Ossuriya shahar-davlatlari, xalqaro savdo. Kanish. Alum. Ashshur. Limmu. Ishshiakkum. Ilushuma. Shamshi-Adad I Xalsu Sharru. Arameylar hujumi. Assiriya zaiflashuvi. Yangi Ossuriya shohligi davri. Iqtisodiy yuksalish. Kalxu. Siyosiy inqiroz. Tiglatpalasar III islohotlari. Ma'muriyat harbiy kuchlar. Bosqinchilik siyosati. Sargon II. Sinaxxerib. Asarxaddon. Ashshurbanapal. Shamash – shum – Ukin qo'zg'oloni. Qo'shni davlatlarni Ossuriyaga qarshi ittifoqi. Nineviya. Xarran. Karkemish. Ossuriya davlatini qulashi.

Ikki daryo oralig'i madaniyati. Shumer va Akkad davrlari. Diniy e'tiqodlar. Yozuv E-duba. Adabiyot. Afsonalar. Gilgamesh haqida afsona. Tasviriy san'at va haykaltaroshlik. Fan. Matematika. Tibbiyot. Me'morchilik. Zikkuratlar.

### **10-mavzu. Qadimgi Kichik Osiyo.**

Qadimgi Xett davlati. Tabiiy sharoit, aholisi va tillari. Manbalar va tarixshunoslik. Chatal Guyuk madaniyati. Xadjilar. Eneolit davri madaniyati. Jez davri. Dorak. Olocha-Guyuk. Shahar-davlatlar. Ossuriya – koloniyalari. Kanish. Qadimgi Xett davlati vujudga kelishi. Kussara. Pitxana. Nesa. Anita. Xattusa. Labarna. Xattusili I. Pankus. Tuliya. Mursili I. Telepin. Mamlakatni birlashtirish jarayoni davom etilishi. Davlat zaiflashuvi. Ijtimoiy va iqtisodiy xususiyatlari.

Yangi Xett davlati. Suppiluliuma. Old Osiyoda hukmronlik. Mitanni davlatini egallash. Mursili II. Xett-Misr qarama-qarshiligi. Kadesh. Xattusili III. Dengiz xalqlarini hujumi. Xett davlatini mag'lubiyati va parchalanishi. Mayda Xett davlatlari. Tabal va Xatti. Ijtimoiy munosabatlar. Tabarna va Tabarnana. Zodagonlar. Pankus. Kohinlar. Ozod jamoatchilar. Qullar. Xo'jalik. Chorvachilik. Dehqonchilik. Konchilik. Hunarmandchilik. Savdo. Xett madaniyati. Diniy etiqodlar. Yozuv haykaltaroshlik. Me'morchilik. Frigiya. Dehqonchilik. Chorvachilik. Gordion. Gordiy. Midas. Kimmeriyaliklarni hujumi. Frigiya madaniyati "xudolarni buyuk onasi" va Attis. Midas qabri. Frigiya yozuvi. Lidiya. Sarda. Tangalarni zarb etilishi. Geraklitlar sulolasi. Mermnandlar sulolasi. Giges. Davlat kengayishi. Kimmeriyaliklar hujumi. Ossuriya bilan kurash. Ardis. Midiya bilan urush. Krez. Lidiya. Eron davlati tarkibiga kirishi.

### **11-mavzu. Qadimgi Yaqin Sharq**

Qadimgi Yamxad. Yamxad haqidagi dastlabki ma'lumotlar. mil.avv. XX asrdagi siyosiy vaziyat. Mil.av. XVIII asrdagi siyosiy o'zgarishlar. Amoriy qabilalari. Xalab (Aleppo) va Alalax. Sumu-epux. Yamxadlik savdogarlar. Mamlakat aholisi, savdo-sotiq, dehqonchilik va chorvachilik. Xo'jalikda zaytun yetishtirish. Mil.avv. XVI asrga kelib Yamxad podsholigiga yangi xavf-xatarlar. Ichki nizolar va tashqi xavfning kuchayishi. Podsho Ilimilimma II davrida Mitanni podsholigi. Alalax (yoki Yamxad) podsholigi mil.av. XV asrda barham topishi. Qadimgi Yamxad madaniyati.

Qadimgi Finikiya. Qadimgi Finikiya sivilizatsiyasi. O'rta yer dengizining sharqiy sohillari. Finikiya davlati geografik holati. Tir. Sidon. Bibl. Ugarit. Finikiya jamiyati - amaldorlar va jangchilar, "podsho odamlari", "Ugarit o'g'illari", erkin fuqarolar va qullar. Finikiya alfaviti. Hujjatlar. Jamoa soliqlari. umumiy davlat majburiyatlari. Qadimgi Finikiya madaniyati.

Mil.av. XIII asrda yahudiy qabilalarining Falastin yerlariga bostirib kirishi. Qadimgi xanaanliklar. Yahudiylarning o'troqlashuvi va dehqonchilikni o'zlashtirishi. Samuil payg'ambar davrida yahudiy qabilalari. Veniamin qavmi Saulni, Gilgal degan joyda podsholikka ko'taradi. Saul, Dovud, Sulaymon. Ieorvoam. Ierusalim. Qadimgi yahudiy dini. Madaniyati.

Qadimgi Frigiya va Lidiya davlatlari. Midas. Tabal, Karxemish. Ioniya yunon shaharlari. Sard shahri. Germ, Paktol, Meandr daryolarining ahamiyati. Mermnadlar sulolasi. Kolofon va Magneziya yerlari. Ardis.

Qadimgi Urartu. Qadimgi Kavkaz orti. Manbalar. Neolit madaniyatlari. Kuro-araks va koban madaniyatlari. Urartu mamlakati. Birlashgan Urartu davlati paydo bo'lishi. Musatsir. Aramu. Sarduri I. Tushpa. Diniy islohat. Menua. Islohatlar, qurilish. Argishti I. Ossuriya bilan kurash. Yerebuni. Argishtixinili. Teyshabaini. Rusa I. Urartu mag'lubiyati. Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar. Davlat ma'muriyati. Ozod jamoatchilar. Qullar. Arme-Shupriya qadimgi arman shohligi. Yervandidlar. Yervand III Kolxida. Eron va Yunoniston madaniy va iqtisodiy ta'siri. Fasis. Vani. Iberiya. Alvoniya.

## **12-mavzu. Qadimgi Eron**

Qadimgi Elam. Tabiiy sharoit, jug'rofik viloyatlar, aholisi. Eron hududida yashovchi xalqlar va qabilalar. Guteylar, kassitlar, xurritlar. Elam davlati. Proto Elam, Neoelam. Shushen (Suza), Anshan (Anchan), Simashki, Adamdun va Paraxse (Marxashi). Podsho Kutik-Inshushinak. Enpiluxanni. Anshan sulolasi. Shutruk-naxxunte I. Elam jamiyati. Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar. Elam madaniyati va uning xususiyatlari. Ossuriya va Elam munosabatlari. Eron zamonli qabilalarning kirib kelishi.

Qadimgi Midiya. Oriylar muammosi. Fors. Manna va Midiya davlatlari vujudga kelishi. Kashtariti. Kimmeriyaliklar va skiflarni Eron hududlariga bostirib kelishi. Skiflar istilosi oqibatlar va Midiyani mustaqilligini tiklanishi. Kiaksar islohotlari. Midiya-Ossuriya urushlari. Ashshurni zabt etilishi. Babil va Midiya ittifoqi. Nineviyani bosib olinishi. Midiyaning Erondagi ta'siri. Ekbatan. Qadimgi Midiya madaniyati.

Forsda Ahamoniylar sulolasi. Kurush II. Zardushtlik dini. Avesto va asosiy qonunlar. Midiya Eron davlati tarkibiga kirishi. Eron davlati Kir II davrida. Markaziy Osiyo janubiy viloyatlarni Eron davlati tarkibiga kirishi. Kir II ning Markaziy Osiyoga ikkinchi yurishi. Kambiz I ni Misrning egallashi. Bardiya. Gaumata. Doro I qo'zg'olonlarni bostirishi. Markaziy Osiyoga yurishi. Doro I islohotlari. Kserks. Yunon-Eron urushlari. Artakserks III davrida Eron. Eron davlatini Markaziy Osiyo xalqlariga siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy ta'siri. Doro III. Eron davlatini zaiflashuvi. Iskandar Zulqarnaynning Sharqqa yurishi. Eron davlatini qulashi. Eron davlati hududlarida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari va ilg'or shakllarini tarqalishi. Dehqonchilik hunarmandchilik. Savdo. Moliya va pullarni zarb etilishi. Eron madaniyati. Eron shohlarini diniy siyosati. Davlat yozuvi. Behistun va Naqshi-Rustam. Yozma manbalar. O'yma rasmlar va haykaltaroshlik. Me'morchilik. Persepol. Eron imperiyasini jahon tarixidagi o'rni. Parfiya podsholigi. Parfiya satrapligi. Salavkiylar. Arshak, Yunon-Baqtriyadan keyin Parfiyani salavkiylar davlatidan mustaqil bo'lishi. Salavkiylar madaniyati. Parfiyaning poytaxti Niso shahri bo'lgan. Mil. avv. 228-yil taxtga Arshakning ukasi Tiridat I. Mil. avv. 209-yil Parfiya podshosi Tiridat I salavkiylar podshosi Antiox III bilan sulh Yue-chjilar siquvi ostida ko'chib kelgan sak qabilalari. Parfiya podsholari Fraat II, Artaban I (mil. av. 128-123-yy) lar. Parfiya madaniyati.

## **13-mavzu. Qadimgi Hindiston**

Mohinjo-Daro va Xarappa. Hududlar tabiiy sharoit va iqlim. Manbalar va manbashunoslik xalqlar va tillar. Hindiston hududidagi ilk dehqonchilik madaniyatlari. Hind daryo vohasidagi qadimgi dehqonchilik madaniyati Ijtimoiy tuzum va iqtisodiy munosabatlar. Jxukar madaniyati. Oriy qabilalarini Hindistonga bostirib kelishi. Oriy muammosi. Jamiyatda yangi ijtimoiy va iqtisodiy tuzum vujudga kelishi. Braxmanizm.

Yangi ijtimoiy-iqtisodiy jamiyatni yuzaga kelishi. Vedalar davri, Rigveda, Varna. Braxmanlar. Kshatriylar. Vayshilar. Shudralar. Ilk davlat birlashmalarining

vujudga kelishi. Malla, Cholla, Magadxa kuchayishi. Pataliputra. Nandalar davlati. Davlat tuzumi. Iqtisodiy munosabatlar.

Qadimgi Hindiston madaniyati. Diniy e'tiqodlar. Rigveda va sanxitlar. Ko'p xudolik. Indra, Varuna, Agni, Surya, Somma, Yama. Jahon yaratilishi to'g'risidagi afsona. Braxma, Vishnu, Shiva, Krishna, Vishnaizm va Shivaizm. Puranlar, Krishna va Kali. Bxagavadgita Buddizmning vujudga kelishi. Nirvana. Sangxa. Maxayana va Xinayana. Budxisatva. Sanskrit. Hindiston falsafasi. Lokayata. Vasheshika. Saxyan Shankara. Adabiyot "Maxabxarata", "Ramayana", Kalidasa, Tyapf, "Panchatantra" Alivakxusha, Bxamani. "Kural". Me'morchilik Kari, Ellor, Sanchi. Haykaltaroshlik Gandxara, Madxur, Amaravatta. Ajanta devor rasmlari. Matematika. Astronomiya. Tabobat. Madaniy aloqalar. "Yavan Jataka".

Aleksandr Makedonskiyning Hindistonga bostirib kirishi. Podsho Por. Nand sulolasining qulashi. Mauryalar davlati vujudga kelishi. Chandragupta. Chanakya. Mamlakatni birlashtirish. Diniy siyosat. Bindusara. Ashoka. Tashqi siyosat. Xo'jalik. Dehqonchilik. Chorvachilik. Hunarmandchilik. Savdo. Mauryalar davlatini inqirozi va parchalanishi. Hindu-yunon davlatlari. Yunon-Baqtriya davlati. Hindistonning ellinistik madaniyati.

Kushon imperiyasi. Yunon-Baqtriya podsholigining ag'darilishi. Ko'chmanchi yue-chjilar bosqini. Xyumi, Dumi, Shuanmi, Xisi, Guyshuan knyazliklari. Kudzula Kadfiz. Vima Kadfiz. Hindiston kushonlar davlati tarkibida. Kanishka. Guptalar davlati shakllanishi. Eftalitlar hujumi. Guptalar davlati qulashi. Janubiy Hindiston davlatlari. Rivojlangan va so'nggi davrlarda Hindistonda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar. Davlat tuzumi. Jamiyatda stratifikatsiya jarayonining rivojlanishi. Varnalar va tabaqalar. Xo'jalik. Hindistonning qo'shni mamlakatlar bilan aloqalar. Hindiston va Buyuk Ipak yo'li. Qadimgi Hindiston va Markaziy Osiyo.

Dalvarzin-tepa, Xolchayon, Eski Termiz. Podsholar Vima Takto, Kanishka I, Xuvishka, Vasishka, Vasudeva. Buddizmning tarqalishi. Taksila. Kxaroshtri. Kushon imperiyasi madaniyati.

#### **14-mavzu. Qadimgi Xitoy**

Hududlar tabiiy sharoit, iqlim. Manbalar va manbashunoslik. Tarixiy davrlashtirish. Ilk dehqonchilik madaniyatlari. Yanishao. Lunshao. Shan qabilasi. Shan-In davlati. Anyan. Shan-In davrida iqtisod, jamiyat va davlat. An'yan yozuv manbalari. Chjou qabilasi. U-van yurishlari va Shan-In davlatining qulashi. G'arbiy Chjou davlati. Siyosiy vaziyat. Ijtimoiy tuzum. Iqtisodiy munosabatlar. Sharqiy Chjouni vujudga kelishi. Ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi. Savdogarlar, Sharqiy Chjou parchalanishi. Qadimgi Xitoy shohlari orasidagi kurash. Le-Go va Jan-Go davrlari. Jamiyat tuzumi. Ijtimoiy munosabatlar. Dehqonchilik. Hunarmandchilik. Savdo. Soliqlar.

Sin davlati kuchayishi. Shan Yan islohotlari. Ko'chmanchilar bilan kurash. In Chjen. Sin Shixuandi. Xitoy birlashgan davlati vujudga kelishi. Islohotlar. Yer egaligi. Harbiy kuchlar. Davlat ma'muriyati. Soliqlar. Qonunlar. Sug'arilish. Yo'llar. Davlat standartlar. Buyuk Xitoy devori. Moliya. Yozuv. Qo'zg'olonlar.

Sin sulolasi taxtdan haydalishi. Taxt uchun kurash. Lyu Ban qo'zg'oloni.

Xan davlati vujudga kelishi. Siyosiy tuzum. Xo'jalik tiklash. Irrigatsiya. Qonunlar. Soliqlar. Zodogonlar. Van va Xou. Qo'zg'olonlar. Davlat zodogonlari. Davlat monopoliyalari. U-Di yangi qonunlar. Xan davlati yuksalishi. O'lkalar va viloyatlar. Nazorat. Harbiy kuchlar. Iqtisod. Davlat dini. Tashqi siyosat. Xitoyliklarni Farg'ona davlatini egallash uchun yurishlari. Ko'chmanchilarga qarshi kurash. Xunnu. Mode. Savdo. Qadimgi Xitoy va Markaziy Osiyo savdo munosabatlari. Buyuk Ipak yo'liga asos solinishi. Xan jamiyatining inqirozi. Xalq qo'zg'olonlari. Van Man islohotlari. "Qizil qoshlilar" qo'zg'oloni. So'nggi Xan sulolasi davri. Ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar. Ko'chmanchi qabilalar bilan kurash. Dehqonchilik. Hunarmandchilik. Savdo. Markaziy Osiyo bilan siyosiy va iqtisodiy aloqalar. Buyuk Ipak yo'li rivojlanishi. So'nggi Xan davlatini zaiflashuvi. Ijtimoiy-iqtisodiy inqiroz. Ko'chmanchilarni hujumi. "Sariq peshanabog'lar" qo'zg'oloni. So'nggi Xan davlati parchalanishi. O'zaro urushlar. Uch podshohlik davri.

Xitoy madaniyati. Diniy e'tiqodlar. Dao ta'limoti. Kun szi ta'limoti. Men szi. Budda ta'limoti. Xitoyda tarqalishi. Davlat dinlari. Yozuv va yozma manbalari. Adabiyot. Fan. Tarix. Matematika. Tibbiyot. San'at. Qadimgi Xitoy sivilizatsiyasi. Jahon xalqlari sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi va uning ahamiyati.

### **15-mavzu. Xunlar imperiyasi**

Xunn qabilalari birlashuvi jarayoni. Shanyuy, Mode. Xunn qabilalari ittifoqi. Hukmdor Tuman. Mode. yue-chjilar bilan kurash jarayoni. Xunlar tili. Xunlar qo'shinining tuzilishi. Xitoy tarixchilari ma'lumotlari. Janubiy va shimoliy Xunn davlatlari. Shanyuy, Xuxane. Ko'chmanchi xunlar madaniyati.

## **JAHON TARIXI II QISM (Qadimgi Yunoniston va Rim tarixi)**

### **1-mavzu. Qadimgi Yunoniston tarixiga kirish**

Antik davr tarixiy tushunchasi. Antik davr va qadimgi Sharq davlatlarining tarixi. Qadimgi Yunonistonning jahon tarixidagi o'rni. Qadimgi Yunonistonning tarixiy davrlari. Yunonistonning geografik o'rni, tabiiy sharoitlari. Tabiiy sharoitlarni Yunonistonning xo'jaligiga va tarixiy rivojlanishiga ta'siri. Qadimgi Yunoniston tarixidan asosiy manbalar va Yunoniston tarixnavisligi. Dengiz va tog' madaniyatlari tushunchasi. Miloddan avvalgi II ming yillikda Yunoniston.

### **2-mavzu. Krit-Miken sivilizatsiya**

Krit-Miken jamiyati rivojlanishi xususiyati. Krit orolida jamiyatning vujudga kelishi, uning rivojlanishi, ravnaqi. Krit davlatining inqirozga uchrashi. Miloddan avvalgi II ming yillikda Axey Yunonistoni. Miken, Trinf va Pilos davlatlari. Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar. Doriy qabilalarining ko'chishi. Urug'-jamo'a munosabatlarining qayta tiklanishi. Miloddan avvalgi XI – IX asrlarda Yunoniston.

### **3-mavzu. Buyuk Yunon kolonizatsiyasi va yunon polislarining vujudga kelishi**

Yunon polislarini paydo bo'lishining sabablari. Kurashayotgan shahar-davlatlar. Demos va aslzodalar o'rtasidagi kurash. Shahar davlatlari-polislarining barpo bo'lishi. Buyuk yunon koloniyalari. Miloddan avvalgi VIII – VI asrda qadimgi Peloponnes. Sparta davlatlarining ijtimoiy-iqtisodiy tuzumi. Sparta davlati.

### **4-mavzu. Miloddan avvalgi IX asr oxiri – VI asrlarda Attika. Afinada quldorlik demokratiyasini paydo bo'lishi**

Attika aholisining vujudga kelishi. Attikaning xo'jaligi, dehqonchiligi, hunarmandchiligi, savdo-sotiq munosabatlari. Ilk davlatni vujudga kelishi. Solon islohotlari va ularning ahamiyati. Antik qullik. Pisistrat hokimiyati. Klisfen islohotlari. Afinada quldorlik demokratiyasining o'rnatilishi.

### **5-mavzu. Yunon-fors urushlari**

Miloddan avvalgi VI–V asrlarda Yunoniston. Yunon–fors urushi boshlanishi sabablari va oqibatlari. Marafon, Salamin, Plateya yaqinidagi janglar. Miloddan avvalgi V–IV asrlarda Yunonistonning iqtisodiy rivojlanishi. Yunoniston iqtisodiy rivojlanishida ikkita asosiy yo'nalish–afinalik va spartalik. Ularning xususiyatlari. Afinani iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishi.

### **6-mavzu. Miloddan avvalgi V – IV asrlarda Yunoniston. Polis tizimining inqirozi**

Afina davlat tuzumi. Perikl davrida Afina quldorlik demokratiyasining ravnaqi. I Afina dengiz ittifoqi. Demokratiya va Yunonistonning oltin asri. Spartaning siyosiy tuzumi. Miloddan avvalgi V asrda Peloponnes ittifoqi. Miloddan avvalgi 430-yil Afina arxe va Peloponnes ittifoqi o'rtasidagi munosabat. Peloponnes urushi, uning sabablari, natijalari, oqibatlari. Ahmoniylar davlatining ta'sirini kuchayishi. Fivaning yuksalishi. II Afina dengiz ittifoqining tashkil topishi. Sparta, Afina, Fiva o'rtasidagi raqobat. Yunonistonda siyosiy tarqoqlik. Polis tizimining inqirozi. Inqirozni yengish dasturlari. (Platon, Isokrat, Aristotel). Buyuk Yunoniston va Qora dengiz sohillaridagi yunon shaharlari va davlatlari.

### **7-mavzu. Aleksandr Makedonskiy imperiyasi**

Makedoniyaning yuksalishi. Yunonistonda Makedoniya hukmronligining o'rnatilishi. Aleksandr Makedonskiy imperiyasi. Sharqqa yurishning boshlanishi. Asosiy janglar. Bosib olingan yerlarda olib borilgan siyosat. Markaziy Osiyoga harbiy yurish. Aleksandr Makedonskiyga qarshi milliy ozodlik kurash. Hindistonga harbiy yurish. Aleksandr Makedonskiy saltanatining tashkil topishi va ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy hayot. Saltanatning parchalanishi.

### **8-mavzu. Ellinistik bosqich va uning xususiyatlari**

Ellinizm mohiyati. Yunon va Sharq elementlari. Ellinizmning davrlanishi. Ellinistik davlatlar. Makedoniya, Yunoniston, Misr va Pergam podsholigi. Ellinistik davlatlarni iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy rivojlanishi va o'ziga xos xususiyatlari. Rim istilosi. Ellinistik davlatlarni qulashini sabablari. Ellinistik madaniyat. Ellinistik madaniyatning ahamiyati.

### **9-mavzu. Qadimgi Yunoniston madaniyati.**

Miloddan avvalgi VIII – II asrlarda qadimgi Yunoniston madaniyati. Yunoniston madaniyati rivojlanishining asosiy shart-sharoitlari. Antik davr madaniyati – jahon sivilizatsiyasining beshigi. Arifmetika, astronomiya, mifologiya va teologiya. “Illiada” va “Odisseya” dostonlari. Ta’lim tizimi. Yunon alifbosi. Tabiiy fanlar, falsafa, notiqlik. Suqrot, Platon va Aristotel. Metafizika. Platon akademiyasi. Anaksimandr. Matematika va matematik fanlar. Pifagor, Yevklid va Arximed. Meditsina. Gippokrat. Tarix fani. Gerodot. Olimpiada o'yinlari. Badiiy tasviriy san'at asarlari. Haykaltaroshlik. Zevs haykali. Fidiy. Pifagor Regiyskiy, Poliklet. Arxitektura. Yunon adabiyoti va teatr. Teatr va uning jamiyatdagi o'rni. Miloddan avvalgi VII–VI asrlarda yunon she'riyati. Miloddan avvalgi V asrda Yunon tragediyasi. Esxil, Sofokl, Evripid, Aristofan ijodi. Esxil.

### **10-mavzu. Qadimgi Rim tarixiga kirish**

Qadimgi Rim tarixiga kirish. Jahon tarixida Rimning tutgan o'rni va ahamiyati. Rim jamiyati – quldorlik tizimining yuqori bosqichi. Xronologiya. Qadimgi Rim tarixining davrlanishi. Italiyaning geografik o'rni va tabiiy sharoitlari. Aholisi. Etnik xilma-xilligi. Asosiy qabilalar: ligurlar va boshqa mahalliy qabilalar, italiklar, illiriyalik etnik guruhlar, etrusklar, yunonlar. Qadimgi Rim tarixini o'rganish.

### **11-mavzu. Ilk Rim Respublikasi**

Miloddan avvalgi VIII – VII asrlarda Italiyada ilk quldorlik jamiyati. Miloddan avvalgi VIII asrda Etruriya. Etrusklar va Rim. Italiya janubida va Sitsiliya orolida yunon polislari. Rim. Rim tarixidan manbalar. Rimning geografik o'rni va tabiiy sharoiti. Rim fuqarolik jamiyati. Patriitsiyalar va plebeylar, kliyentlar va patronlar. Patriarxal qulchilik va uning manbalari. Davlat tuzilishi. Podsho hokimiyati. Serviy Tulliy islohati. Podsho hokimiyatining yemirilishi va Rim Respublikasining o'rnatilishi. Miloddan avvalgi VI – III asrlarda Rim va Italiya. Plebey va patriitsiyalar o'rtasidagi kurash sabablari, asosiy bosqichlari va natijalari. Miloddan avvalgi IV – III asrlarda Rimda davlat tuzilishi. Rim tomonidan Italiyaning istilo etilishi. Rim-Italiya ittifoqi.

### **12-mavzu. Mil avv. III – II asrlarda Rim respublikasi**

Rim va Karfagenning O'rta Yer dengizi xavzasidagi hukmronlik qilish maqsadida olib borgan kurashi. Karfagen davlati. Karfagen – Rim munosabatlari. Puni urushlari. Ularning natijalari. Miloddan avvalgi II asrdagi Rimning Sharqiy

O'rta Yer dengizidagi istilolari. Makedoniyaning istilo etilishi. Makedoniya va Yunonistonning provinsiyalarga aylanishi. Salavkiylar podsholigining qulashi. Uchinchi Puni urushi. Karfagenning tor-mor etilishi. Miloddan avvalgi II-I asrlarda Rimning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi. Rimda quldorlikning o'sishi. Rim istilolarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayoniga ta'siri Rimni iqtisodiy, ijtimoiy rivojlanishini o'ziga xos xususiyatlari. Klassik qulchilikni ahamiyati. Miloddan avvalgi II asrda Rimdagi ichki siyosat. Qullar qo'zg'oloni. Sitsiliyada I qullar qo'zg'oloni. Aka-uka Graxlarni agrar siyosiy islohotlari. Yugurta urushi. Gay Mariyning harbiy-siyosiy islohatlari, uning faoliyati. Rimdagi ijtimoiy-siyosiy kurash. Italiyadagi ittifoqchilar urushi.

### **13-mavzu. Rim respublikasi inqirozi va Ilk imperiya**

Miloddan avvalgi I asrning 80-yillarida Rim respublikasida siyosiy kurash. Pont podsholigi bilan birinchi urush. Miloddan avvalgi I asrning 80-yillari oxirida Rimda fuqarolar urushi. Lutsiy Korneliy Sullaning diktaturasi. Ispaniyada Sertoriyning faoliyati. Pont podsholigi bilan uchinchi urush (Miloddan avvalgi-74-63-yy.). Spartak boshchiligidagi qo'zg'olon. Miloddan avvalgi 70-yillar oxiri 60-yillar boshida siyosiy guruhlarining kurashi. Miloddan avvalgi 60-yillarda Rimda siyosiy kurash. 1-uchlar ittifoqi (1-triumvirat). Sezarning konsulligi. Galliyada urushlar. Yuliy Sezarning siyosiy mavqeining mustahkamlanishi. Miloddan avvalgi I asrning 40 – yillarida fuqarolar urushi va Yuliy Sezar diktaturasi. Yuliy Sezar qonunchiligi. Ijtimoiy siyosat. Yuliy Sezar diktaturasining ahamiyati. Miloddan avvalgi I asrning 40-yillar oxiri va 30-yillardagi fuqarolar urushi. II-uchlar ittifoqi (II – triumvirat). Fuqarolar urushining ijtimoiy-siyosiy oqibatlari. Polis tizimi inqirozi va Rim respublikasi qulashining asosiy sabablari.

### **14-mavzu. Ilk Rim imperiyasi**

Imperiyaning o'ziga xos xususiyatlari. Rim imperiyasining administrativ tuzilishi. Italiya. g'arbiy va Sharqiy provinsiyalar. Ularning o'ziga xos iqtisodiy xususiyatlari. Oktavian Avgust hukmronligi. Prinsipat. Monarxiya o'rnatilishining dolzarbligi. Oktavianning siyosiy dasturi va maqsadi. Qonunchilik. Prinsipat asoslari. Avgustning ijtimoiy siyosati. Quldorchilikning kuchayishi. Oktavian Avgustning tashqi siyosati, uning hukmronligining natijalari va ahamiyati.

### **15-mavzu. Milodiy I - II asrlarda Rim imperiyasida ijtimoiy - iqtisodiy munosabatlar.**

Rim imperiyasining iqtisodiy ravnaqi. O'rta Yer dengizi havzasida iqtisodiy birlik. Millodiy I – II asrlarda Rim hokimiyati. Quldorlikning kuchayishi. Mayda ishlab chiqarish kuchlari. Kolonat munosabatlarining rivojlanishi va uning evolyutsiyasi. Shahar aholisi. Ozodlikka chiqarilgan qullar. Miloddan avvalgi I asrda Rim imperiyasi. Yuliy-Klavdiy va Flaviylar sulolasi. Antoninlar sulolasi. Rim imperiyasining "oltin davri". Ijtimoiy munosabatlar va madaniy hayotning butun O'rta Yer dengizi havzasida birligi. II asr – antik sivilizatsiyasining ravnaqi. Antoninlarning agrar, iqtisodiy-ijtimoiy, siyosati. qulchilikka munosabat. "Rim

dunyosi” – bu tushunchaning ijtimoiy-siyosiy mazmuni. So‘nggi Antoniylar davrida ichki va tashqi ahvolni o‘zgarishi. II asrda Rim davlati rivojlanishining asosiy ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy natijalari. III asr inqirozi. Rim davlatining inqirozi. Ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy inqirozning sabablari. Xristian dinining vujudga kelishi va yoyilishi.

### **16-mavzu. So‘nggi Rim imperiyasi**

Milodiy IV – V asrlarda Rim jamiyati va davlati. Dominat tizimi. Inqirozni yengish. Diokletian va Maksimianning ijtimoiy-siyosiy islohatlari. Davlat boshqaruvining o‘zgarishi, tetrarxiya, dominat tizimining o‘rnatilishi. Imperator hokimiyati. Soliq islohatlari. Imperator Konstantin. Konstantinning diniy siyosati. Xo‘jalikning rivojlanishi. Patrotsiniy. Rim provinsiyalarida varvarlarning joylashuvi. Ijtimoiy ziddiyatlarning keskinlashuvi. Ommaviy xarakterlar. Xalqlarning Buyuk ko‘chishining boshlanishi. Rim armiyasida varvarlarning o‘sishi.

### **17-mavzu. G‘arbiy Rim imperiyasining qulashi**

Rim imperiyasining g‘arbiy va Sharqiy imperiyalarga bo‘linishi, uning sabablari. G‘arbiy Rim imperiyasi. Uning zaifligi. Reyndagi german qabilalari. Ularning Italiyaga bostirib kirishi. Yangi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tartibning belgilari. Xunlar. Katalaun jangi. Rim markaziy hokimiyatining inqirozi. G‘arbiy Rim imperiyasining qulashi. Antik quldorlik jamiyati qulashining iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy sabablari va oqibatlarini. Quldorlik jamiyatining tarixiy ahamiyati. Qadimgi dunyo sivilizatsiyalari – zamonaviy sivilizatsiyaning poydevori.

### **18-mavzu. Qadimgi Rim madaniyati.**

Rim va G‘arb sivilizatsiyasi ildizlari. Antik madaniyatning inqirozi. Tarixnavislik. Ammian Marsellin. Xronikalar. Arxitektura va qurilish. San‘at. Maxsus bilimlar. G‘arb sivilizatsiyasi haqidagi ilk qarashlar. Fan va texnologiya.

## **Jahon tarixi III qism (O‘rta asrlar tarixi)**

### **1-mavzu. Kirish. Varvar qirolliklarining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishi.**

O‘rta asrlar tarixi manbalarini turkumlash. O‘rta asrlar tarixi manbalarini umumiy tavsifi va ularni o‘rganish uslubi. V – XI asrlar tarixi manbalari. Natural xo‘jalik yer rentasi shakllari. Krepostnoylikni kengayishi shart-sharoitlari. Patronat. Immunitet. German qabilalari. Feodalizm sintezi. O‘rta asrlar tarixi manbalarini o‘rganish muammolari.

Quldorlik tuzumining inqirozi va Rim imperiyasida feodal munosabatlarning vujudga kelishi. Emfitevisis. III – V asrlarda iqtisodiy inqiroz. Rim imperiyasining ijtimoiy va davlat tuzumi. G‘oyaviy inqiroz. Imperiyaning xristianlashishi. Xalq ommasining ijtimoiy noroziligi va uning turlari. German qabilalarida ibtidoiy

jamoat tuzumining inqirozi. IV – V asrlarda siyosiy tuzumning o'zgarishi. Rim imperiyasining qulashi va varvar davlatlarining tashkil topishi. Xalqlarning buyuk ko'chishining sabablari. Vestgotlar. Vandallar. Xunlar.

### **2-mavzu. Franklar davlati**

Galliyaning franklar tomonidan bosib olinishi. Merovinglar davlati. "Sali haqiqati". Merovinglar davrida frank jamiyatida ijtimoiy tabaqalanish. Frank davlati. Xlodviglar davrida davlatning bo'linib ketishi. Karolinglar hukmronligi. Feodallashtirish jarayonining tezlashishi. Papa davlatining tashkil topishi. Buyuk Karl imperiyasi. Karolinglar davlatida feodal munosabatlarning asosining shakllanishi. Feodal votchinasiga qarshi dehqonlar ahvoli. Karolinglar davlatining zaiflashuvi va uning parchalanib ketishi.

### **3-mavzu. Vizantiya imperiyasi**

IV – IX asr birinchi yarmida Vizantiya. Vizantiya imperiyasining tashkil topishi. Qishloq xo'jaligi. Shaharlar hunarmandchilik va savdo. Imperator Yustinian davri. "Nika" harakati. Yustinian tashqi siyosati va urushlar. Slavyanlar bosqini. VII – VIII asrlarda Vizantiyada ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar. VIII – IX asr birinchi yarmida xalq harakati. IX – XI asr o'rtalarida Vizantiya. Makedoniya sulolasi imperatorlarining agrar qonunlari. "Eparx kitobi". Davlat apparati. IX – XI asrlarda cherkov. IX asr ikkinchi yarmi XI asr o'rtalarida Vizantiya tashqi siyosati. X – XI asrlarda siyosiy kurash.

### **4-mavzu. Arab xalifaligi**

O'rta asr arab tarixshunosligi. Arabiston yarim oroli aholisi va madaniyati. Qabilaviy urug'chilik tizimi. Makka, Madina shaharlari. Davlatning yuzaga kelishi shart-sharoitlari. Islomga qadar mavjud davlatlar.

Muhammad s.a.v. faoliyati. Yangi din uchun kurash. Qur'on diniy yodgorlik sifatida. Musulmonlar aqidasi va urf-odatlar. Oila. Nikoh va ayollarning qur'ondagi ta'riflanishi. Islom va injil. Islomning tarqalishi. Ilk xalifalik davri. Xarbiy yurishlar. Vizantiya va Eronga yurish. Arablar g'alabasining sabablari.

Ummaviylarning hokimiyatga kelishi. Sunniylik va shialik. Ummaviyliklar xalifaligining yuksalishi. Arablarga qarshi milliy ozodlik harakatlari. Muqanna. Bobek. Zinjij. Qo'zg'olon sabablari. Abbosiylar hokimiyati va uning parchalanish sabablari.

### **5-mavzu. Ilk o'rta asrlarda G'arbiy Yevropa davlatlari.**

Angliya. Britaniya orolidagi maxaliy kelt, skot va pikt qabilalar yerlarini german (angl, saks, yut) qabilalari tomonidan bosib olishi va o'z qiroliklariga asos solishi. Buyuk Artur qirolligi. Daniyaliklarning bosqini. Denlo hududi. Buyuk Alfred qirolligi. Britaniya orolini Daniyaliklarni to'liq bosib olinishi.

Germaniya. Sharqiy frank qirolligida mahalliy sakson sulolasining taxtga kelishi. Genrix I. Burglar, venger qabilalarning bosqini va Lex daryosi yonidagi jang. Otton I va Muqadas Rim Imperiyasi. Germaniyada feodal munosabatlarning shakllanishi. Germaniyada feodallashtirish jarayonining o'ziga xos xususiyati.

Yagona nemis ilk feodal davlatining tashkil topishi. Germaniyada cherkov siyosati. German qirollarining italyanacha siyosati va Muqaddas Rim imperiyasining tashkil topishi. Nemis feodallarining slavyanlar yerlariga bosqinlari. Germaniyada feodal tuzumning yanada mustahkamlanishi. XI asr ikkinchi yarmida siyosiy inqiroz.

Skandinaviya xalqlari: vikinglar. Shimoliy Yevropadagi davlat birlashmalari.

### **6-mavzu. Slavyan xalqlari. Kiyev Rusi davlati**

Slavyan xalqlari: sharqiy, janubiy, g'arbiy slavyanlar. Chexiya, Bolgar podsholigi, Polsha. Ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyoti. Madaniyati. Diniy etiqod.

Qadimgi Rus davlatining tashkil topishi va rivojlanishi. IX – XI asrlarda Rus davlatining tashkil topishidagi shart-sharoitlar. Norman nazariyasi. Sharqiy slavyan qabilalarining Kiyev knyazligiga birlashtirilishi. Drevlyanlar. Kiyev Rusi davlatining qo'shni slavyan davlatlari bilan iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalari. Knyazliklar. Vladimir va Suzdal yerlari. Barshchina.

### **7-mavzu. Ilk O'rta asrlarda Hindiston**

Ilk o'rta asrlarda Hindiston. Hindistonning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti. Agrar munosabatlar. Kasta-jamoa tizimi. Gupta davlatining parchalanishi va Xarsha davlatining vujudga kelishi. Buddizmning qulashi va induizm podsholigining. VIII asr boshlarida Hindistonda siyosiy vaziyat. Rajput podsholigining vujudga kelishi. Rajputlar istilosining boshlanishi. Rajput podsholigida vassal-iyerarxiya tizimi. Feodal yer egaligi turlari. X asr o'rtalari XII asrlarda Rajputa podsholigi. VIII – XII asrlarda Janubiy hind davlati va Dekan. Janubiy Hind va Dekanda feodal munosabatlarning rivojlanishi.

### **8-mavzu. Ilk O'rta asrlarda Xitoy**

Ilk o'rta asrlarda Xitoyda feodal munosabatlarning vujudga kelishi va rivojlanishining jahon tarixiga xosligi. Xan imperiyasidan keyin Uch podsholik davrida o'zaro urushlar. IV – V asrlarda ko'chmanchilarning bosqinlari. Shimol va Janubda davlat uyushmalarining vujudga kelishi. Yer munosabatlarining shakllari. Davlat va ma'muriyat. Ijtimoiy tuzum. Buddha, Konfutsiy va daosizm diniy e'tiqodlari. VI – VII asrlarda Xitoyning birlashishi va iqtisodiy yuksalishi. Suy va Tan sulolalari. Feod sistemasining rivojlanishi. Shaharlar, xunarmandchilik va savdo. Buyuk Ipak yo'li. Xitoy va Markaziy Osiyo.

### **9-mavzu. Salib yurishlari**

Salib yurishlari (XI asr oxiridan to XIII asr oxirigacha) sabablari va ularning qatnashchilari, xarakteri. Birinchi salib yurishi. Sharqda salibchilar davlati. Ikkinchi, uchinchi salb yurishlari. 1202-1204-yillardagi salb yurishlari. Vizantiyaning istilo etilishi. So'nggi salib yurishlar. Salib yurishlarning oqibatlari. Rim papaligi. Salib yurishlarining G'arbiy Yevropaga ko'rsatgan ta'siri.

### **10-mavzu. XII-XV asr boshlarida Fransiya**

XI – XIII asrlarda Fransiya Agrar tuzumdagi o‘zgarishlar. Shaharlar XI – XII asrlarda siyosiy tarqoqlik. Markazlashish jarayoni. Qirol hokimiyatining kuchayishi. Alobigoy urushi. Davlat boshqaruvi.

XIV – XV asrlarda Fransiya. XIV asrda feodallar va dehqonlar. Shahar ijtimoiy hayoti. Markazlashish jarayoni yutuqlari. Qirol hokimiyatining kuchayishi. Hukmron tabaqalarning jipslashishi, siyosiy faoliyatining kuchayishi. Papa bilan kurash va Bosh shtatlarning vujudga kelishi. Yuz yillik urush. Parij qo‘zg‘oloni. Jakeriya XIV asr ikkinchi yarmida xalq harakati.

Feodal urushlar. Kaboshyenlar qo‘zg‘oloni. Yuz yillik urushning ikkinchi davri. Janna d’Ark – xalq qahramoni. Soliq va harbiy islohot. Qishloq xo‘jaligi, hunarmandchilik va savdo. XV asr ikkinchi yarmida Fransiyaning siyosiy birlashishi.

### **11-mavzu. XII-XV asr boshlarida Angliya**

XI – XII asrlarda Angliya. Norman istilosi. Feodallashish jarayonining tugashi. “Dahshatli sud kitobi”. Agrar tuzum va dehqonlarning ahvoli. Shaharlar. Mamlakatning rivojlanishi. Ijtimoiy taraqqiyot. Islandiya istilosi. Yagona ingliz xalqining shakllanishi.

XIII asrda Angliya. Iqtisodiy rivojlanish. Dehqonlarning tabaqalanishi. Ijtimoiy ziddiyatning keskinlashishi. Feodallar guruhi. Iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari va asosiy yo‘nalishlari. Shaharlar. Siyosiy kurash. Erkinliklarning Buyuk xartiyasi. Fuqarolar urushi. Angliya parlamentining vujudga kelishi. Angliya tashqi siyosati. XIV – XV asrlarda Angliya. Qishloq xo‘jaligining rivojlanishi. Shahar va qishloqlarda ijtimoiy ziddiyatning keskinlashishi. Uot Tayler qo‘zg‘oloni. XV asrda Angliyaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. Djek Ked qo‘zg‘oloni. Ingliz millatining shakllanishi.

### **12-mavzu. Muqaddas Rim imperiyasi va Pireney yarim oroli davlatlari.**

XII – XIII asrlarda Muqaddas Rim imperiyasi. Ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi. Shaharlar. Nemis qishlog‘ida ijtimoiy ziddiyat. Hududiy knyazliklarning tashkil topishining iqtisodiy shart-sharoitlari. Sharqqa nemis bosqini. German imperatorlarining tashqi siyosati. Xududiy knyazliklarning mustahkamlanishi.

XIV – XV asrlarda Germaniya. Shaharlarning rivojlanishi. XIV – XV asrlarda nemis qishlog‘i. Germaniyaning siyosiy rivojlanishi. Shahar va qishloqlardagi ijtimoiy harakatlar.

XI – XIII asrlarda Pireney yarim oroli davlatlari. Rekonkista. Pireney yarim oroli davlatlarining iqtisodiy rivojlanishi. Shaharlar. Ijtimoiy taraqqiyot. Siyosiy tuzum.

XIV – XV asrlarda Pireney yarim oroli davlatlari. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish. Hukmron guruhlar va ichki siyosiy kurash. Cherkov va unga qarshi kurash. Rio Gonzales de Klavixo missiyasi.

### **13-mavzu. XII-XVI asrlarda Rus knyazliklarining siyosiy, ijtimoiy-**

### **iqtisodiy taraqqiyoti**

Rusda feodal tarqoqlik. Feodal munosabatlar. Xalq qo'zg'olonlari. Siyosiy tuzum. Tashqi dushmanlar bilan kurash. Feodal tarqoqlik davrida Rus yerlari. Iqtisodiy rivojlanish.

XII – XIII asrlarda Boltiq bo'yi. Rusning nemis-shved feodallariga qarshi kurashi. Rim papasi. Rusning nemis bosqinlariga qarshi kurashi. Mo'g'ul-tatar bosqinlariga qarshi kurash. Oltin O'rda xonligi. Rus yerlarining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishi.

### **14-mavzu. XII-XV asrlarda Mo'g'ullar imperiyasi**

XII – XIII asrlarda Mo'g'ul qabilalari. Mo'g'ullar davlatining yuzaga kelishi. Chingizxonning tashqi siyosati. Chingizxon va uning vorislarining ichki va tashqi siyosati. Yuan davlati. Siyosiy boshboshdoqlik. Uluslarga parchalanishi. Yasoq. Qurultoy. Cherik.

### **15-mavzu. XII-XVII asrlarda Usmoniylar davlati**

Saljuqiylar davrining asosiy xususiyatlari. XIII asr ikkinchi yarmi XIV asr boshlarida Kichik Osiyo. XIV asr ikkinchi yarmida Usmoniylar davlatining tashkil topishi va Bolqon istilosi. XV asr ikkinchi yarmida Turkiya. Xalq harakati. Konstantinopolning ishg'ol etilishi. Bolqon va Kichik Osiyodagi istilolarning tugatilishi.

XV asr ikkinchi yarmida Turkiya. Feodal munosabatlar. Fotih Mexmed II islohotlari. Qonunnoma.

### **16-mavzu. XII-XVII asrlarda Hindiston va Eron**

Dehli sultonligining tashkil topishi. Feodal munosabatlar. XIII asrda Dehli davlati. Alaud-Din Xilji Muxammad Tug'laq imperiyasi. XIV asr ikkinchi yarmida Dehli sultonligi va uning qulashi. Dehli sultonligining qayta tiklanishi. Baxmani davlati. Vijayanagar davlati.

Abbosiylar davrida Eron. Saljuqiylar bosqini va Eronni zabt etilishi. Ismoiliiylar davlati. Mo'g'ullar bosqini davrida Eron. Xulakuxon yurishlari. Eronni zabt etilishi. Ilxonlar davlati. Qozonxon islohoti. A.Temur davrida Eron. Oqqo'yunli turkmanlar davlati. Safaviylar davlatini yuzaga kelish shart-sharoiti.

### **17-mavzu. XIII-XVII asrlarda Xitoy.**

Feodal urushlar. Yan-yan islohotlari. Tan davlatida qarama-qarshiliklarning keskinlashishi. Dehqonlar urushi. Sun davlatining tashkil topishi. Davlat tuzumi. Ichki va tashqi siyosat. Feodal munosabatlar. Xalq qo'zg'olonlari. Siyosiy kurash. Chjurchjenlar bosqini. Mo'g'ullar bosqini. Xalq qo'zg'olonlari. Min davlatining tashkil topishi. Madaniyat va fan. Xitoy va Markaziy Osiyo.

### **18-mavzu. Yangi davr boshlarida Yevropa mamlakatlarida ijtimoiy–iqtisodiy hayot. XVI-XVII asrlarda Fransiya va Angliya**

Buyuk geografik kashfiyotlar va ularning tarixiy ahamiyati. Mustamlakachilik tizimining shakllanishi. Yangi davr boshlarida Yevropaning ijtimoiy-iqtisodiy qiyofasi. Kapitalistik ishlab chiqarishning shakllanishi. Birja va banklar. Ilm-fan.

Qirollik hokimiyatining kuchayishi. Absolyutizm. Yevropada reformatsiya. Fransiya davridagi diniy urushlar.

Angliya Yelizavetta I hukmronligi davrida. Dengiz hukmronligi uchun kurashlar.

## **JAHON TARIXI IV QISM** **(Yangi davr: Yevropa va Amerika mamlakatlari)**

### **1-mavzu. Kirish. Yangi davrda Yevropa va Amerika mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanishi: asosiy yo‘nalishlar va tendensiyalar.**

“Yangi tarix” atamasi va uning iste‘molga kiritilishi. “Yangi tarixni” davrlashtirish masalasi. Yevropa va Amerika mamlakatlari tarixida yangi davrning ahamiyati.

Sanoat rivojlanishidagi o‘zgarishlar. Yirik korxonalarni qurishga bo‘lgan zarurat. Manufakturalarning paydo bo‘lishi va rivojlanishi. Ishlab chiqarishning yangicha tashkil qilinishi. Xo‘jalik yuritishning yangi shakli. Sanoat to‘ntarishi. Texnik ixtirolarning ishlab chiqarishga joriy qilinishi. Sanoatlashtirish jarayonlari. Sanoatning monopollashuvi. Agrar sohadagi o‘zgarishlar. «Agrar inqilob». Qishloqlarda yangicha iqtisodiy munosabatlarning shakllanishi. Yerga egalik masalalari. Savdo sohasidagi o‘zgarishlar. Savdo kompaniyalar faoliyati. Jahon savdosi ko‘lamining kengayishi. Moliya tizimidagi o‘zgarishlar. Banklar faoliyati. Hissadorlik jamiyatlar va kompaniyalarning paydo bo‘lishi. Shaharlarning Yevropa va Amerika mamlakatlari iqtisodiy rivojlanishidagi o‘rni. Iqtisodiy inqirozlar.

### **2-mavzu. Yangi davrda Yevropa va Amerika mamlakatlarining ijtimoiy rivojlanishi: asosiy yo‘nalishlar va tendensiyalar.**

Yevropa mamlakatlarida yangicha hayot tarzining vujudga kelishi. Shaharlarning jamiyat hayotidagi roli. Aholining ijtimoiy tarkibidagi o‘zgarishlar. Savdo-sanoat va moliya doiralari. Tadbirkorlar. Yollanma ishchilar. Dehqonlar va ularning shaxsiy ozodlikka erishish masalasi. Fermerlar. Kundalik turmushdagi o‘zgarishlar. Migratsiya jarayonlari. Zodagonlik. Shahar aholisi sonining o‘sib borishi. Urbanizatsiya jarayoni. Yangi davrda demografiya masalasi. Demografik inqilob. Kasaba uyushmalar.

### **3-mavzu. Yangi davrda Yevropa va Amerika mamlakatlarining siyosiy rivojlanishi: asosiy yo‘nalishlar va tendensiyalar.**

Markaziy hokimiyat masalalari. Absolyutizm. Vakillik muassasalari. Sud tizimining tashkil qilinishi. Parlamentarizm. Qirol va parlament o‘rtasidagi

ziddiyatlar. Mutlaq monarxiyani cheklash masalasi. Qirol hokimiyati va cherkov. Ma'rifatchilik g'oyalari va siyosat. "Ma'rifatli absolyutizm". Inqiloblar. Ijtimoiy-Osiyosiy ta'limotlar va harakatlar. Liberalizm, konservatizm, sotsializm. Kommunistik g'oyalar. Siyosiy partiyalar.

#### **4-mavzu. Buyuk Britaniya yangi davrda: tarixiy rivojlanishning asosiy voqealari va jarayonlari.**

Ilk yangi davrda Angliyaning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy rivojlanishi. Angliyaning ichki va tashqi siyosati. Absolyutizm va Reformatsiya. Siyosiy inqiroz. Yelizaveta I hukmronligi. Dengiz hukmronligi uchun kurash. Yakov I va Karl I Styuartlarning ichki va tashqi siyosati. Parlamentda muxolifatning kuchayishi. Puritanlik. Inqilobning zamini va shart-sharoitlari. Inqilobning boshlanishi. Fuqarolar urushi. Levellerlar va respublikaning o'rnatilishi. Respublika va protektorat. Oliver Kromvel. Ikkinchi respublika va Styuartlarning tiklanishi. "Shonli inqilob". Madaniyat va siyosiy fikr. XVIII asrning birinchi yarmida Buyuk Britaniyaning siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. Sanoat to'ntarilishi. Ingliz ma'rifatchiligi. Buyuk Britaniya Napoleon Fransiyasiga qarshi urush davrida. XIX asrning birinchi yarmida ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanish. Sanoat to'ntarilishining yakunlanishi. Tashqi siyosat va mustamlakachilik masalalari. Buyuk Britaniyada ijtimoiy munosabatlar. XIX asrning ikkinchi yarmida Buyuk Britaniyaning iqtisodiy va siyosiy rivojlanishi. U.Gladston va B.Dizraeli. Irlandiya masalasi. Ishchilar harakati. Leyboristlar. XX asrning boshida Buyuk Britaniyaning ichki va tashqi siyosati. L.Jorj. Urush oldi inqirozi. Britaniya dominionlari. Buyuk Britaniya Birinchi jahon urushi yillarida.

#### **5-mavzu. Fransiya yangi davrda: tarixiy rivojlanishning asosiy voqealari va jarayonlari.**

Ilk yangi davrda Fransiyaning siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. Fransiyada diniy urushlar va mutlaq monarxiyaning mustahkamlanishi. Ichki siyosiy inqiroz. Rishelye. Ichki va tashqi siyosat. Mazarini va Fronza. Lyudovik XIV absolyutizmi. Fransuz ma'rifatchiligi. Inqiloboldi inqirozi. Fransiya inqilobi (XVIII asr oxiri). Konsullik va birinchi imperiya. Napoleon Bonapartning ichki va tashqi siyosati. Burbonlarning dastlabki tiklanishi. Vena kongressi va uning qarorlari. Burbonlarning ikkinchi marta tiklanishi. Tiklanish davrida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish. 1830-yil iyul inqilobi. Fransiyada Iyul monarxiyasi (1830-1848-yy.). 1848-yil inqilobi. Ikkinchi Respublika. 1851-yil 2-dekabr davlat to'ntarilishi va Ikkinchi imperiya. Ikkinchi imperiya davrida Fransiyaning ichki va tashqi siyosati. Mustamlakachilik siyosati. Fransiya-Prussiya urushi. Uchinchi Respublika. XIX asr oxirida siyosiy vaziyat. XIX oxiri – XX boshida Fransiya iqtisodiyoti. Uchinchi respublikaning tashqi siyosati. XX asr boshida siyosiy kurash. Fransiya Birinchi jahon urushi yillarida.

#### **6-mavzu. Germaniya yangi davrda: tarixiy rivojlanishning asosiy voqealari va**

### **jarayonlari.**

German davlatlari ilk yangi davrda: siyosiy tarqoqlik. Reformatsiya va dehqonlar urushi. German yerlari O'ttiz yillik urush davrida. German davlatlari O'ttiz yillik urushdan so'ng. Iqtisodiy vaziyat. Dehqonlar harakati. Germaniya shaharlari. Brandenburg-Prussiya davlatining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishi. Prussiya qirolligi. Fridrix II ning ichki va tashqi siyosati. German davlatlari xalqaro munosabatlar tizimida. Yagona nemis millatining shakllanishi. Madaniy rivojlanish. Fransiya inqilobi (XVIII asr oxiri) va nemis davlatlari. German davlatlari Napoleon urushlari davrida. 1815-1848-yillarda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanish. 1848-1849-yillar inqilobi. Inqilobdan so'ng Germaniyaning rivojlanishi. Iqtisodiy o'sish. Sanoat to'ntarishining yakunlanishi. Agrar islohotlar. Otto fon Bismark faoliyati. Shimoliy German ittifoqining barpo etilishi. Tashqi siyosat. Fransiya-Prussiya urushi va Germaniyaning birlashishi. XIX asr oxirgi choragida Germaniya imperiyasining davlat tuzumi va iqtisodiyoti. "Kulturkampf" va sotsialistik harakatga qarshi kurash. XIX asrning oxirgi choragida ichki siyosiy vaziyat. Germaniya xalqaro munosabatlar tizimida (XIX asr oxiri – XX asr boshida). XX asr boshida Germaniyaning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishi. Germaniya va "jahon siyosati". Germaniya Birinchi jahon urushi yillarida.

### **7-mavzu. Avstriya (Gabsburglar) monarxiyasi yangi davrda: tarixiy rivojlanishning asosiy voqealari va jarayonlari.**

Ilk yangi davrda Avstriyaning siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. Gabsburglar monarxiyasining shakllanishi. O'ttiz yillik urushdan so'ng Gabsburglar monarxiyasining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishi. Vengriya Gabsburglar monarxiyasi tarkibida. Turkiyaga qarshi urush. Karlovits tinchlik shartnomasi. Gabsburglar monarxiyasi "Ispan merosi" uchun urushi yillarida. XVIII asr boshida monarxiyaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. "Avstriya merosi" uchun urush. Mariya Tereziya va Iosif II-ning "ma'rifatli absolyutizmi". Chexiya, Slovakiya va boshqa milliy viloyatlar Gabsburglar monarxiyasi tarkibida. Avstriya monarxiyasi Fransiya inqilobi va Napoleon urushlari yillarida. XIX asrda monarxiyaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. Avstriya monarxiyasi slavyan xalqlarining "Milliy uyg'onish" davri. 1848-yil inqilobi. Avstriya monarxiyasi 1849-1867-yillarda. 1859-yilda Fransiya va Pyemontga qarshi urush. Avstriya-Prussiya urushi (1866-y.). Davlatning dualistik Avstriya-Vengriya imperiyasiga aylanishi. XIX asrning oxirgi choragida milliy masalaning keskinlashuvi. Avstriyada ijtimoiy harakatlar. Vengriya dualizm tizimida. Imperiyaning oxirgi o'n yilliklari. Avstriya-Vengriya Birinchi jahon urushi yillarida.

### **8-mavzu. Rossiya yangi davrda: tarixiy rivojlanishning asosiy voqealari va jarayonlari.**

Rossiya ilk yangi davrda. Markazlashgan davlat: uning ichki va tashqi siyosati. Boyarlar guruhlarini o'rtasidagi hokimiyat uchun kurash. Ivan IV (Grozniy) hukmronligi. Boris Godunov boshqaruvi. "Smuta" (notinch, alg'ov-dalg'ovlik)

davri. Romanovlar sulolasi: Rossiyaning ichki rivojlanishi va xalqaro ahvoli. Hokimiyat uchun kurash. Rossiya Pyotr I hukmronligi davrida. Islohotlar. Saroy guruhlar. Saroy to'ntarishlari. Rossiyaning "mutlaq" hukmdorlari. Yekaterina II. "Ma'rifiy boshqaruv". Modernizatsiyaga urinishlar. Islohotlar. Aksil islohotlar. Ijtimoiy va siyosiy oqimlar. Siyosiy partiyalarning shakllanishi. Iqtisodiy rivojlanishdagi o'zgarishlar. "Inqilobiy" harakatlar. 1905-yil voqealari. Xalqaro ahvol. Rossiya Birinchi jahon urushi yillarida.

### **9-mavzu. AQSh yangi davrda: tarixiy rivojlanishning asosiy voqealari va jarayonlari.**

Shimoliy Amerikada mustamlakalarning barpo etilishi. Ingliz mustamlakalardagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyat. Mustaqillik uchun urushning zamini va shart-sharoitlari. Mustamlakalar va metropoliya o'rtasidagi ziddiyatlar. Mustaqillik uchun urush va AQShning tashkil topishi. AQShning davlat tuzumi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. AQSh XIX asrning birinchi yarmida: taraqqiyotning asosiy tendetsiyalari. AQSh hududlarining kengayishi. Ikki partiyali tizimning shakllanishi. Shimol va Janub o'rtasidagi ziddiyatlar. Fuqarolar urushi 1861-1865-y.y. Qulchilikning bekor qilinishi. Janubni Rekonstruksiyalash (1865-1877 yy). AQSh 1877-1914-yillarda: ichki siyosat va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar. XIX asrning oxirgi choragi – XX asr boshida AQShning tashqi siyosati. AQSh Birinchi jahon urushi yillarida.

### **10-mavzu. Niderlandlar yangi davrda: tarixiy rivojlanishning asosiy voqealari va jarayonlari.**

Ilk yangi davrda Niderlandlarning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishi. Niderlandlar Ispaniya monarxiyasi tarkibida. Ozodlik uchun kurashning boshlanishi. Niderlandlar inqilobi. "Partikulyarizm". Ingliz-golland urushlari. Jahon savdosida ustuvorlikning qo'ldan ketishi. Iqtisodiy rivojlanishdagi pasayish. Niderlandlarning siyosiy tuzumi. XVIII asrning ikkinchi yarmida respublikada ichki siyosiy vaziyat. Niderlandlar Fransuz inqilobi va Napoleon urushlari yillarida. Batav respublikasi. Gollandiya qirolligi. Fransiya hukmronligining ag'darilishi. Vena kongressi va Niderlandlar qirolligining barpo etilishi. Ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat. 1830-yil inqilobi va Belgiyaning Niderlandlardan ajralib chiqishi. 1848-yil Konstitutsiyasi. Islohotlar. XIX asrning ikkinchi yarmida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish. Siyosiy kurash. Niderlandlar XX asr boshida. Niderlandlar Birinchi jahon urushi yillarida.

### **11-mavzu. Italiya yangi davrda: tarixiy rivojlanishning asosiy voqealari va jarayonlari.**

Ilk yangi davrda Italiya davlatlarining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishi. Tarqoqlikning saqlanib qolinishi. Italyan urushlari davri. Chet el davlatlariga qaramlik. "Ispan merosi", "Polsha merosi", "Avstriya merosi" uchun urushlar va Italiya davlatlari. Italiya XVIII asr oxiri – XIX asr boshida. Risorgimento

(Uygʻonish). Italiya davlatlari Fransiya inqilobi va Napoleon urushlari davrida. XIX asr 20-30 yillar inqilobi. J.Madzini. “Yosh Italiya”. XIX asrning 20-30-yillarda iqtisodiy rivojlanish. Moʻtadil liberallar faoliyati. K.B.Kavur. Italiya davlatlari 1848-1849-yillar inqilobi davrida. J. Garibaldi. Italiya qirolligining barpo etilishi. Fransiya-Prussiya urushi va Risorjimentoning yakunlanishi. XIX asrning oxirgi choragi – XX asr boshida Italiyaning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishi. Italiyaning tashqi siyosati. Mustamlakalar uchun kurash. Italiya Birinchi jahon urushi arafasida. “Liberal davrning” tugashi. Italiya Birinchi jahon urushi yillarida.

### **12-mavzu. Ispaniya yangi davrda: tarixiy rivojlanishning asosiy voqealari va jarayonlari.**

Ilk yangi davrda Ispaniya. Qirol va grandlar. Ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy inqirozning boshlanishi. XVII asrning ikkinchi yarmida Ispaniyaning iqtisodiy va siyosiy ahvoli. “Ispan merosi” uchun urush (1701-1714-yy). Ispaniyada Filipp V va Ferdinand VI hukmronligi. Karl III “maʼrifatli absolyutizmi”. Absolyutik tuzum inqirozi. Manuel Godoy. Ispaniya Napoleon urushlari yillarida. Mustaqillik uchun urush. Birinchi inqilob. 1808-yil 2-may qoʻzgʻoloni. 1812-yil Kadis konstitutsiyasi. Ferdinand VII-ning ichki va tashqi siyosati. Ikkinchi inqilob (1820-1823-yy). Uchinchi inqilob (1834-1843-yy). Toʻrtinchi inqilob (1854-1856-yy). Beshinchi inqilob (1868-1873-yy). Birinchi respublika. Ispaniyada Burbonlarning tiklanishi. Ichki va tashqi siyosat. “El-Pardo pakti”. Anarxistlar, sotsialistlar va muxtoriyatchilar. Mustamlakalardan mahrum boʻlish. XIX asr oxiri – XX asr boshida Ispaniyaning siyosiy va iqtisodiy ahvoli. Marokash masalasi. Siyosiy kurashning keskinlashuvi. Ispaniya Birinchi jahon urushi yillarida.

### **13-mavzu. Portugaliya yangi davrda: tarixiy rivojlanishning asosiy voqealari va jarayonlari.**

Portugaliya Ispan Gabsburglari hukmronligi ostida. “Portugaliya manifesti” va mustaqillikning tiklanishi. Absolyutik monarxiya sharoitida Portugaliyaning ichki va tashqi siyosati. Markiz Pombal faoliyati. Islohotlar. Portugaliya Fransiya inqilobi va Napoleon urushlari yillarida. 1822-yil Konstitutsiyasi. 1826-yil Xartiyasi. Fuqarolar urushi (1824-1834-yy.). “Xartiyachilar” va “sentyabrchilar” oʻrtasidagi qarama-qarshilik. XIX asr oʻrtasida Portugaliyada ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyat. XIX asrning ikkinchi yarmida Portugaliyaning davlat tuzumi. Monarxiya va ikki partiyali tizim: “Rejenerados” (Uygʻonish) va Taraqqiyot partiyasi. Respublikachilar partiyasining tuzilishi. Iqtisodiyot va siyosat. XIX asr oxiri – XX asr boshida Portugaliyaning xalqaro ahvoli. 1910-yil inqilobi. Portugaliya Birinchi jahon urushi yillarida.

### **14-mavzu. Lotin Amerikasi yangi davrda: tarixiy rivojlanishning asosiy voqealari va jarayonlari.**

Lotin Amerikasida mustamlakalarning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvoli. Mustamlakachilik tartiblari va ularning inqirozi. XVIII asrning ikkinchi yarmida

Lotin Amerikasidagi ispan va portugal mustamlakalaridagi o'zgarishlar. Savdoni erkinlashtirish. Demokratik inqiloblar va mustaqillik uchun urush (1810-1826-yy). Milliy davlatlarning vujudga kelishi. Lotin Amerikasi mamlakatlaridagi ichki inqirozlar. Lotin Amerikasi – AQSh munosabatlari. XIX asrning 30-yillardan boshlab konservatorlar mavqeyining mustahkamlanib borishi. Davlat boshqaruvi va ijtimoiy-iqtisodiy siyosatdagi o'zgarishlar. Lotin Amerikasi mamlakatlari XIX asr o'rtalari – XX asr boshida. Argentina: iqtisodiy rivojlanish va siyosiy kurash. Braziliyada quldorchilik tuzumining inqirozi. Abolyutsionistik harakat va monarxiyaning ag'darilishi. Peru, Boliviya, Chilining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishi. Markaziy Amerika mamlakatlari XIX asr oxiri – XX asr boshida. Kubada mustaqillik uchun kurash va respublikaning vujudga kelishi. 1898-yildagi AQSh-Ispaniya urushi. XX asr boshida AQShning Lotin Amerikasidagi siyosati. Meksika inqilobi. Lotin Amerikasi Birinchi jahon urushi yillarida.

### **15-mavzu. Polsha yangi davrda: tarixiy rivojlanishning asosiy voqealari va jarayonlari.**

Ilk yangi davrda Rech Pospolitaya: davlat tuzumi, aholisi va hududlari. Polsha va Litvaning birlashishi. Rech Pospolitaning ichki va tashqi siyosati. Saksoniya qirollari hukmronligi. Rech Pospolitaning xalqaro ahvoli. Ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat. XVIII asrda Polsha: rivojlanishning asosiy tendensiyalari. Siyosiy guruhlar o'rtasidagi kurash. Stanislav Avgust Ponyatovskiy faoliyati: islohotlar. Polshani bo'lib olishlar. Tadeush Kostyushko qo'zg'oloni. Polsha Napoleon urushlari davrida. Varshava knyazligi. Vena kongressi qarorlari va Polsha. Polsha qirolligi Rossiya imperiyasi tarkibida. XIX asrning birinchi yarmida polyak yerlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. 1830-yil qo'zg'oloni. 1848-1849-yillardagi Yevropa inqiloblari va polyak yerlarida ozodlik uchun kurashning faollashuvi. 1863-yil qo'zg'oloni. XIX asrning oxirgi o'n yilliklari – XX asr boshida polyak yerlaridagi siyosiy vaziyat. Sanoat va qishloq xo'jaligi. Ijtimoiy rivojlanish va ijtimoiy harakatlar. Ishchilar harakati va sotsialistik partiyalarning tashkil topishi. 1905-yil rus inqilobi va polyak yerlari. Polsha Birinchi jahon urushi yillarida.

### **16-mavzu. Janubi-Sharqiy Yevropa xalqlari yangi davrda: tarixiy rivojlanishning asosiy voqealari va jarayonlari.**

Janubi-Sharqiy Yevropa va Usmoniylar imperiyasi. Turklarning Bolqon yarim orolida olib borgan siyosati. Janubiy slavyanlar Gabsburglar monarxiyasi tarkibida. Ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvol. Janubiy slavyanlarning milliy uyg'onishi. Xorvatlar, slovenlar, serblar. Avstriya monarxiyasining janubiy slavyanlari 1848-1849-yillardagi inqilob davrida. XIX asrning 60-yillarida Avstro-Vengriyaning janubiy slavyan yerlarida ijtimoiy ko'tarilish. XVII – XVIII asrlarda Bolqon slavyanlari Usmoniylar hukmronligi ostida. Usmoniylar imperiyasi tarkibidagi janubiy slavyanlarning milliy-ozodlik harakati: asosiy bosqichlari va tendensiyalari. Chernogoriya. Serbiya. Bosniya va Gersegovina. Bolgariyada milliy uyg'onish. Dunay knyazliklari. Yunoniston Usmoniylar imperiyasi tarkibida. 1875-

1878-yillardagi "sharqiy inqiroz". Janubi-Sharqiy Yevropa xalqlari XIX asrning oxirgi choragi – XX asr boshida: ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy rivojlanish. Bolqon urushlari (1912-1913-yy.). Janubi-Sharqiy Yevropa Birinchi jahon urushi yillarida.

### **17-mavzu. Shimoliy Yevropa mamlakatlari yangi davrda: tarixiy rivojlanishning asosiy voqealari va jarayonlari.**

Shimoliy Yevropa mamlakatlari ilk yangi davrda. Kalmar uniyasining bekor qilinishi. Shimoliy Yevropa XVII – XVIII asrlarda. Shvetsiya va Daniya-Norvegiya qirolliklari: aholisi va hududlari. Ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanish. Absolyutizmning o'rnatilishi. Skandinaviya mamlakatlarining o'zaro munosabatlari va xalqaro ahvoli. Shimoliy urush va uning oqibatlari. Shimoliy Yevropa davlatlarida siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar. Napoleon urushlari natijasida Shimoliy Yevropaning siyosiy xaritasidagi o'zgarishlar. Shimoliy Yevropa 1815-1870-yillarda: rivojlanishning asosiy bosqichlari va tendensiyalari. XIX asrning 30-40-yillarida Yevropada inqilobiy harakatlar va Skandinaviya davlatlari. Shlezvig-Golshteyn masalasi. Iqtisodiy rivojlanish va demokratiyaning oyoqqa turishi. Shimoliy Yevropa mamlakatlari XIX asrning oxirgi choragi – XX asr boshida. Daniya, Shvetsiya, Norvegiya, Finlyandiya. Skandinaviya davlatlari Birinchi jahon urushi yillarida.

### **18-mavzu. Yangi davrda Yevropa mamlakatlarining xalqaro munosabatlari.**

Ilk yangi davrda Yevropada xalqaro vaziyat. O'ttiz yillik urush va Vestfaliya tizimi. XVII asrning ikkinchi yarmi – XVIII asrda xalqaro munosabatlarning asosiy masalalari. Kuchlar nisbatidagi o'zgarishlar. "Ispan merosi" uchun urush. Shimoliy urush. "Avstriya merosi" uchun urush. Yetti yillik urush. Yevropa va Usmoniylar imperiyasi o'rtasidagi munosabatlar. Mustamlakachilik siyosati. Savdo urushlari. AQShning tashkil topishi va Yevropa davlatlari. Fransiyada inqilob va xalqaro munosabatlar. Yevropa Napoleon urushlari yillarida. Vena kongressi va uning qarorlari. XIX asrning 20-30 va 40-yillardagi inqilobiy va milliy-ozodlik harakatlarining xalqaro munosabatlarga ta'siri. "Vena tizimining" yemirilishi. Qrim urushi. XIX asrning 50-60-yillarida xalqaro munosabatlar. Mustamlakachilik siyosatining usullari va harakteridagi o'zgarishlar. Germaniyaning birlashishi. Italiyaning birlashishi. Fransiya-Prussiya urushi. XIX asrning oxirgi choragida xalqaro munosabatlar. Harbiy-siyosiy guruhlarining (bloklarning) shakllanishi va ular o'rtasidagi kurash. AQSh, Germaniyaning mustamlakalar uchun kurashga qo'shilishi. XX asr boshida xalqaro munosabatlar. Rus-yapon urushi. Bolqon urushlari. Davlatlararo raqobatning keskinlashuvi. Birinchi jahon urushi.

## **JAHON TARIXI V QISM (Yangi davr: Osiyo va Afrika mamlakatlari)**

### **1-mavzu. Yaponiya yangi davrda: tarixiy rivojlanishning asosiy voqealari va jarayonlari.**

Ilk yangi davrda Yaponiyaning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy rivojlanishi. Tokugava davlati. Yakkalanish siyosati. Savdo-sotiqning rivojlanishi. Xo'jalik inqirozining kuchayishi. Manufakturaning o'sishi. Dehqonlar ahvolidagi og'irlashuvi va ularning ommaviy ravishda shaharga ketib qolishi. Dehqonlar va hunarmandlar qo'zg'olonlari. Tokugava tartiboti. Yaponiya va g'arb davlatlari. Rus-yapon munosabatlari. Syogunat davrida Yaponiya madaniyati. Amerika, Buyuk Britaniya va Fransiyaning Yaponiya ichki ishlariga aralashuvi. Noteng shartnomalar. Tokugava tartibotiga qarshi harakat. 1868-yil inqilobining ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlari. 1867-1868-yillardagi Meidzi inqilobi. Fuqarolar urushi va Syogunat tartibotining tugashi. Yangi hukumat va uning siyosati. Agrar islohot. XIX asrning 60-90 yillari – XX asr boshida Yaponiya. Yaponiya ichki-iqtisodiy taraqqiyotidagi xususiyatlar. Zamonaviy sanoatni vujudga keltirishda davlatning roli. Dehqonlar harakati. Samuraylar qo'zg'oloni. Siyosiy partiyalarining vujudga kelishi. 1881-yilgi Konstitutsiya. 1894-1895-yillaridagi Yaponiya-Xitoy urushi. Yaponiyaning tashqi siyosati. Yaponiya birinchi jahon urushi yillarida.

### **2-mavzu. Xitoy yangi davrda: tarixiy rivojlanishning asosiy voqealari va jarayonlari.**

Ilk yangi davrda Xitoyda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyat. Manjurlar hukmronligining o'rnatilishi. Manjur hukumatining ichki siyosati. Sin imperiyasining agrar siyosati. Savdo-sotiq, manufaktura, hunarmandchilik va shahardagi ijtimoiy ahvol. Sin sulolasining tashqi siyosati. Xitoyning yakkalanish siyosati. Xitoy xalqining manjur hukmdorlariga qarshi kurashi. Sin imperiyasining iqtisodiy va siyosiy ahvoli. G'arb mamlakatlari va Xitoy. Birinchi ingliz-xitoy (afyun) urushi. 1842-1844-yillardagi tengsiz shartnomalar. Dehqonlar urushining boshlanishi. Taypinlar va ularning ichki va tashqi siyosati. Sin hukumati va G'arb davlatlari. Taypin davlatining qulashi. Xalq haraqatlari. Dungan-uyg'ur qo'zg'oloni. Yoqubbek va uning siyosati. Xitoy va Markaziy Osiyo davlatlari. Iqtisodiy va siyosiy munosabatlar. XIX asr oxiri – XX asr boshida Xitoy. Xitoyda yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning shakllanishi va ularning xususiyatlari. Kan Yuvey rahbarligida islohotchilik harakati. Sun Yatsenning birinchi tashkiloti – "Xitoy uyg'onishi ittifoqi". Ixetuan qo'zg'oloni va uning mag'lubiyatga uchrashi. 1901-yilda tuzilgan "Yakunlovchi protokol" va Xitoyning yarim mustamlaka holiga tushib qolishi. XX asr boshida Xitoyda iqtisodiyotning rivojlanishi. 1905-1907-yillarda Xitoyda norozilik haraqatlarning o'sishi. "Birlashgan ittifoq" (tukmen). Sun Yatsenning "3 tamoyili". Sinxay inqilobining boshlanishi. Sin saroyining siyosati. Respublika hukumatining tuzilishi va Sun Yatsenning vaqtincha prezident etib saylanishi. Sin sulolasi hokimiyatining tugatilishi. Yuan Shikayning hokimiyatga kelishi. Gomindanning tashkil bo'lishi. Birinchi jahon urushi yillarida Xitoyning siyosiy va iqtisodiy ahvoli.

### **3-mavzu. Hindiston yangi davrda: tarixiy rivojlanishning asosiy voqealari va**

### **jarayonlari.**

Ilk yangi davrda Hindiston. Boburiylar davlatining inqirozi. Hindistondagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyat. XVIII asrning 2-yarmida Hindistonda Angliyaning hukmronligi. Hindiston va Ost-Hind kompaniyasi. Hindiston Angliyaning xom ashyo manbayi. Hindistonda yer egaligi qatlamining shakllanishi va hind ziyolilarining paydo bo'lishi. Yangi shaharlarning rivojlanishi. 1857-1859-yillardagi xalq qo'zg'olonlari. XIX asr 60-yillarida Hindiston. Iqtisodiy va madaniy munosabatlar. XIX asrning oxiri – XX asrning boshida Hindiston. Hindiston iqtisodiyoti va mustamlakachilik tartbotining kuchayishi. Agrar munosabatlar. Hindistonga ingliz sarmoyasining kirib kelishi. Hindistonda tovar-pul munosabatlarining o'sishi. Milliy sanoatning rivojlanishi. 1860-1870-yillarda milliy ozodlik harakati va undagi asosiy oqimlar. Hindiston milliy kongressining tashqil qilinishi va uning faoliyati. Musulmon jamoasi harakati. 1906-1908-yillarda ishchilar va dehqonlar harakati. “Svaraj” va “svadeshi”. 1905-yilda Bengaliyaning bo'lib yuborilishi va ommaviy haraqlar. Birinchi jahon urushi davrida Angliyaning Hindistondagi siyosati. M.M.Gandi faoliyatining boshlanishi.

### **4-mavzu. Eron yangi davrda: tarixiy rivojlanishning asosiy voqealari va jarayonlari.**

Eron ilk yangi davrda. Safaviylar davlati inqirozi. Afg'onlar istilosi. Nodirshoh hukmronligi va uning olib borgan ichki va tashqi siyosati. Karimxon Zend va uning siyosati. Qojarlarning ichki va tashqi siyosati. Yevropa davlatlari o'rtasida Eron uchun kurash. Rossiya-Eron urushi va Guliston sulhi. 1814-yildagi ingliz-eron shartnomasi. Eron-turk urushi (1821-1823-yy). Rossiya va Eron munosabatlari. 1826-1828-yillarda bo'lib o'tgan Eron-Rossiya urushi va. Turkmanchoy sulhi. Ingliz-Eron munosabatlari. Eronda Bobiylar qo'zg'oloni. XIX asrning 50-60-yillarda Erondagi ichki va tashqi siyosat. Siyosiy, iqtisodiy va madaniy munosabatlar. XIX asr oxiri – XX asr boshida Eron. Eronning yarim mustamlakaga aylanish jarayoni. Eron iqtisodiyotidagi asosiy tarmoqlarning Angliya, Rossiya qo'liga o'tishi. Eronda AQSh va Germaniya faolligining kuchayishi. Milliy haraqlarning vujudga kelishi va rivojlanishi. Inqilob. 1908-yilda Tehrondagi aksil-inqilobiy to'ntarilish. 1908-1909-yillardagi Tabriz qo'zg'oloni. Muhammad Ali shohning ag'darilishi. Angliya va Rossiyaning tajovuzi. Turk qo'shinlarining Eronga kirishi. Inqilobning yengilishi va uning sabablari. Eron Birinchi jahon urushi yillarida.

### **5-mavzu. Afg'oniston yangi davrda: tarixiy rivojlanishning asosiy voqealari va jarayonlari.**

Afg'oniston ilk yangi davrda. Jamoa-urug'chilik tuzumining yemirilishi. Durroniylar davlatining tashqil topishi. Afg'onistonning XVIII asrning ikkinchi yarmida ijtimoiy-iqtisodiy holati. Ahmad-shoh yurishlari. Durroniylar davlatining parchalanishi. Angliyaning Afg'onistonga tajovuzi. Afg'on xalqining bosqinchilarga qarshi kurashi. 1855-yilgi ingliz-afg'on shartnomasi. Rus-afg'on munosabatlari. XIX asr oxiri – XX asr boshida Afg'oniston. Angliyaning

Afg'onistonga tajovuzi va ikkinchi ingliz-afg'on urushi (1878-1880-yy). Gandamak shartnomasi. Qobuldagi xalq qo'zg'oloni. 1891-yildagi ingliz-afg'on shartnomasi. Pushtun qabilalarining ingliz bosqinchilariga qarshi qo'zg'oloni. 1907-yildagi ingliz-rus bitimi va Afg'oniston. Yosh afg'onlar harakati. Afg'onistonda rus-ingliz raqobati. Afg'oniston Birinchi jahon urushi yillarida.

### **6-mavzu. Usmoniylar imperiyasi (Turkiya) yangi davrda: tarixiy rivojlanishning asosiy voqealari va jarayonlari.**

Ilk yangi davrda Usmoniylar davlati. Yevropa davlatlari bilan munosbatlar. Imperiyaning ichki ahvoli. 1730-1731-yillardagi Istanbul qo'zg'oloni. Usmoniylar imperiyasining xalqaro ahvoli. Salim III islohotlari. Rossiya-Turkiya munosabatlari. Maxmud II faoliyati. Tanzimot. 1853-1856-yillardagi Qrim urushi va Parij traktati. Chet el sarmoyasining kirib kelishi. Siyosiy, iqtisodiy va madaniy munosabatlar. XIX asr oxiri – XX asr boshida Usmoniylar davlati. XIX asr oxiri va XX asr boshida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot. 70-yillardagi siyosiy inqiroz. 1876-yil Konstitutsiyasi. Milliy qarama-qarshiliklarning kuchayishi. 1877-1878-yillardagi Rossiya-Turkiya urushi. 1878-yil Berlin traktati. Serbiya, Chernogoriya, Ruminiya mustaqilligining tan olinishi. Kipr va Misrni buyuk Britaniya tomonidan, Tunisni Fransiya tomonidan bosib olinishi. Chet el konsessiyalari. Bag'dod temir yo'li. Germaniyaning Turkiyaga kirib kelishi. Abdul Hamid II. Ozodlik harakati. "Birlik va taraqqiyot" partiyasining vujudga kelishi. Turkiyada yosh turklar harakati. Usmoniylar imperiyasi hududlarini bosib olish uchun kurash. Yosh turklarning hokimiyat tepasiga kelishi. Arab va boshqa xalqlarning milliy-ozodlik kurashi. Panturkizm g'oyalarning vujudga kelishi va mohiyati. Ijtimoiy-siyosiy qarama-qarshiliklarning keskinlashuvi. Yosh turklar siyosatining barbod bo'lishi. Turkiya Birinchi Jahon urushi yillarida.

### **7-mavzu. Koreya yangi davrda: tarixiy rivojlanishning asosiy voqealari va jarayonlari.**

Koreya ilk yangi davrda. XVII – XVIII asrlarda Koreyaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. Dehqonlar qo'zg'olonlari va siyosiy kurash. Feodal Koreyada inqirozning keskinlashuvi. Xon Gyonne qo'zg'oloni va Dehqonlarning tutgan o'zni. Rivojlangan davlatlarning Koreyaga nisbatan siyosati. XIX asrning 60-yillarida dehqonlar qo'zg'olonlari. Regent tevongunning ichki va tashqi siyosati. Koreys xalqining bosqinchilarga qarshi kurashi. Koreya XIX – XX asr boshida. XIX asrning ikkinchi yarmida Koreyada ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat. Rivojlangan davlatlarning mustamlakachilik siyosati oqibatlari. 1893-1894-yillardagi dehqonlar qo'zg'olonlari. Yaponiya-Xitoy urushi (1894-1895-yy) va Koreya. Rus-yapon urushi va Koreyada Yaponiya protektoratining o'rnatilishi. Koreyada ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlardagi o'zgarishlar. Koreyaning anneksiya qilinishi. Yaponiya mustamlakachilik tartiboti. Koreya Birinchi jahon urushi yillarida.

### **8-mavzu. Mo'g'uliston yangi davrda: tarixiy rivojlanishning asosiy voqealari**

### **va jarayonlari.**

Mo'g'uliston ilk yangi davrda. XVII asr o'rtasi – XVIII asrda Mo'g'ulistonning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy rivojlanishi. Mo'g'ulistonning ijtimoiy tarkibi. Oyratlar ahvoli. Mo'g'ul xalqining milliy- ozodlik harakati va Sin hukumatining ag'darilishi. Davlat tuzumi. Ijtimoiy tafakkur. Mo'g'uliston Birinchi jahon urushi yillarida.

### **9-mavzu. Misr yangi davrda: tarixiy rivojlanishning asosiy voqealari va jarayonlari.**

Misr ilk yangi davrda. Misr Usmoniylar hukmronligi ostida. Misrning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli. Ali-bey qo'zg'oloni. Napoleonning Misrga ekspeditsiyasi. Fransuzlarning Misrdagi siyosati. Muhammad Alining hokimiyat tepasiga kelishi. Muhammad Ali davrida Misrning kuchayishi. Islohotlar. Muhammad Alining tashqi siyosati. Usmoniylar bilan munosabatlar. Xorijiy sarmoyalarning Misrga kirib kelishi. Suvaysh kanali. Misrni iqtisodiy bo'ysundirilishi. Milliy-ozodlik harakati. Ahmad Arabi faoliyati. Misrni Angliya tomonidan okkupatsiya qilinishi. Sudan masalasi. XIX asr oxiri – XX asr boshida Misrning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvoli. Ingliz protektoratining o'rnatilishi.

### **10-mavzu. Usmoniylar Suriyasi yangi davrda: tarixiy rivojlanishning asosiy voqealari va jarayonlari.**

Ilk yangi davrda Usmoniylar imperiyasiga tegishli Suriya viloyatlari. Demografik va etno-konfessional holat. Usmoniylar imperiyasining Suriya viloyatlarida ijtimoiy-iqtisodiy ahvol. Yer egaligi masalalari. Shaharlar. Suriyada boshqaruv tizimining tavsifiy xususiyatlari. Ma'muriy-hududiy bo'linish. Usmoniylar davlatchiligining umumiy inqirozi sharoitida Suriya viloyatlaridagi vaziyat. Suriyada ijtimoiy-siyosiy kurash. Ayonlar urug'lari va guruhlar o'rtasidagi raqobat. Tog'li Livandagi vaziyat. Yevropaliklarning Suriyaga kirib kelishi. "Usmoniylar Suriyasida" ijtimoiy fikr. Suriya misrliklar okkupatsiyasi va tanzimot islohotlari davrida. Diniy vaziyatning keskinlashuvi. Suriya viloyatlari XIX asr oxiri – XX asr boshida.

### **11-mavzu. Arabiston yarimoroli mamlakatlari yangi davrda: tarixiy rivojlanishning asosiy voqealari va jarayonlari.**

Iroq Usmoniylar imperiyasi tarkibida. Boshqaruv tizimi. Agrar munosabatlar. Qabilalar va ijtimoiy-iqtisodiy hayot. Siyosiy vaziyat. Iroqda tanzimot islohotlari. Midxat-posho faoliyati. Xorijiy sarmoyalarning kirib kelishi. Shimoliy va Markaziy Arabiston ilk yangi davrda. Arabistonda Usmoniylar boshqaruvining o'rnatilishi. Arabistonda diniy vaziyat. Saudiylarning Birinchi davlati. Nadjni birlashtirish. Fors ko'rfazi uchun kurash. Hijoz uchun kurash. Arabistonni misrliklar tomonidan bosib olinishi. Saudiylarning Ikkinchi davlati. Saudiylarning Uchinchi davlatini barpo etish uchun kurashning boshlanishi. Quvayt amirligining barpo etilishi. Ingliz protektoratining o'rnatilishi. Baxraynda ustivorlik qilish uchun xalqaro raqobat. Davlat asoslarining yaratilishi. Baxraynda

inglizlar protektorati. Qatar, Ummon va Yaman yangi davrning tarixiy sharoitlarida: ichki rivojlanishi va xalqaro ahvoli.

### **12-mavzu. Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari yangi davrda: tarixiy rivojlanishning asosiy voqealari va jarayonlari.**

Vyetnam ilk yangi davrda. Dayvyet: ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanish. Maklar sulolasi. Nguyenlar. Vyetnam va tashqi dunyo. Yaponiya va Xitoy bilan munosabatlar. Teyshonlar qo'zg'oloni. Vyetnam XIX asrning birinchi yarmida. Vyetnamni fransuzlar tomonidan istilo qilishning birinchi bosqichi. Shimoliy va Markaziy Vyetnamni fransuzlar tomonidan kolonizatsiya qilinishi. Hindixitoy ittifoqining barpo etilishi. Ozodlik harakati. Kambodja ilk yangi davrda. Kxmerlar. Ayutiya va Dayvyet bilan kurash. Kambodja fransuzlar protektorati ostida. Laos ilk yangi davrda. Lang Sang. Laos XVII asr o'rtalari – XIX asr o'rtalarida. Xalqaro ahvol. Laos Fransiya protektorati ostida. Indoneziya ilk yangi davrda. Ache sultonligi. Joxor sultonligi. Niderlandlar Ost-Indiya kompaniyasining faoliyati. Mataram sultonligi. Indoneziyada gollandlar hukmronligi. Tailand (Ayutiya, Siam) yangi davrda. Siamning Fransiya va Buyuk Britaniya bilan munosabatlari. Noteng shartnomalar. Islohotlar. Malayziya yangi davrda. Malakka. Malayziyada gollandlar va inglizlar raqobati.

### **13-mavzu. Shimoliy Afrika mamlakatlari yangi davrda: tarixiy rivojlanishning asosiy voqealari va jarayonlari.**

